

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAHSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT KIMYO-TEKNOLOGIYA INSTITUTI**

**“KASB TA‘LIMI” KAFEDRASI**

**“Mutaxassislik fanlarini o‘qitish va ishlab chiqarish ta‘limi  
metodikasi” fanidan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: “PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA” FANINI  
O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLI TA‘LIM  
TEKNOLOGIYALARINI QO‘LLASH.**

**Bajardi: G‘anieva B.N.**

**Raxbar: Zokirova SH.A.**

Toshkent - 2018

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
“KASB TA’LIMI” KAFEDRASI**

**«TASDIQLAYMAN»**  
**Kasb ta’limi kafedrası mudiri:**  
**dots. Aripova G. SH.**  
\_\_\_\_\_ «\_\_\_» April 2017y.

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO‘YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba \_\_\_\_\_

**1. Bitiruv ishi mavzusi:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ Institut rektorining / - sonli \_\_\_\_\_ yil buyrug‘i asosida tasdiqlandi.

**2. Malakaviy bitiruv ishini topshirish muddati:** \_\_\_\_\_ **iyun 2018 yil**

**3. Malakaviy bitiruv ishiga doir ko‘rsatmalar**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**4. Xisoblash tushuntirish yozuvlarining tarkibi** (ishlab chiqiladigan masalalar ro‘yxati):

1. Kirish. 2. Mutaxassislik fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.  
3 Mutaxassislik fanini mazmun mohiyati 3 ta asosiy mavzu bo‘yicha.  
4. O‘qitish texnologiyasining nazariy asoslari. 5. Mutaxassislik fani bo‘yicha o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish. 6. Fan doirasida o‘tiladigan 1ta asosiy mashg‘ulotning texnologik xaritasi. 7. Mutaxassislik fanini o‘qitish metodikasi. 8. Mutaxassislik fanidan talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash  
9 Xulosa. 10.Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 11. Ilovalar

**5. Grafik ishlari ro‘yxati:** (slyd tarzidagi ko‘rgazmali materiallar nomi aniq ko‘rsatiladi)

1. Maxsus fanlar to'g'risida ma'lumotlar. 2. O'quv maqsadlarini belgilash. 3. Dars o'tishning texnologik xaritasi. 4. Ajratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ishlanmalar.

### 6. Malakaviy bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Malakaviy bitiruv ishini bajarish bosqichlari	Maslaxatchining F.I.O.	Bajarish muddati	Bajarilganligi xaqida imzo
1	Texnologik qism			
2	Pedagogik qism			

Tolshiriq berilgan sana “ ” \_\_\_\_\_

Malakaviy bitiruv ishni raxbari \_\_\_\_\_  
imzo F.I.O.

Topshiriqni bajarishga oldim \_\_\_\_\_ “ ” \_\_\_\_\_  
imzo

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**“Kasb ta’limi” kafedrası**

**TUSHUNTIRISH -IZOH YOZUVI**

Bitiruv ishi mavzusi \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ dots. Aripova G, SH.  
(imzo) (sana) (familiya, ismi, sharifi)

Bitiruv  
ishi rahbari \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana) (familiya, ismi, sharifi)

Pedagogik qism \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana) (familiya, ismi, sharifi)

Bitiruv ishini  
bajaruvchi: \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana) (familiya, ismi, sharifi)

Toshkent – 2018

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>6</b>
<b>I-BOB. “Pedagogika.Psixologiya” fanining o‘qitishning maqsad va vazifalari</b>	
1.1. “Pedagogika.Psixologiya” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari va o‘qitish xususiyatlari.....	9
1.2. «Psixologiya. Pedagogikasi » fanni o‘zlashtirgan talabning malakaviy darajalari.....	9
1.3“Pedagogika. Psixologiya” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va aloqadorligi.....	10
1.4. “Pedagogika.Psixologiya” fanidan ajratilgan soatlar taqsimoti.....	10
1.5. “Pedagogika.Psixologiya” fanining mazmun va moxiyati	12
1.5.1. “Muloqot psixologiyasi” mavzusining mazmun va moxiyati.....	
1.5.2. “Shaxsning individual psixologik xususiyatlari” mavzusining mazmun va moxiyati.....	20
1.5.3. “Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya” mazmun va moxiyati.....	28
<b>II-BOB. “PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING AMALIY ASOSLARI</b>	
2.1. Didaktik o‘yinli texnologiyalarning ta’lim jarayondagi tadbir’i.....	42
2.2. “Pedagogika.Psixologiya” fanidan tanlangan mavzulari bo‘yicha o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish.....	50
2.3. “Pedagogika.Psixologiya” fanidan “Muloqot psixologiyasi” mavzuning texnologik modeli va xaritasi.....	54
2.4. “Pedagogika.Psixologiya” fanining o‘qitish metodikasi.....	56
2.5. “Pedagogika.Psixologiya” fanidan talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini baxolash.....	67
<b>Xulosa.....</b>	<b>72</b>
<b>Adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>73</b>
<b>Ilovalar</b>	

## KIRISH

**Mavzuning dorzarbligi.** Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'ladi. Yurtimizda 27.07.2017 yilda qabul qilingan PQ 3151 "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda "O'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralarini ko'rish" kerakligi keltirib o'tilgan. SHundan kelib chiqib ta'lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o'zgarib turadi. Ta'lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o'zining boshlang'ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya'ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo'lgan talabini qondirgan. Ijtimoiy taraqqiyot ta'limning madaniyatshunoslik funksiyasini yuzaga keltirdi. Ta'limning rivojlanishiga boshqa ijtimoiy omillar ham ta'sir ko'rsatdi, natijada hukmron sinflar umummadaniy va takomillashib boruvchi bilimga o'z monopoliyasini o'rnata boshladilar, aholining asosiy qatlamlari esa kundalik turmushda zarur bo'ladigan amaliy bilimlarnigina egalladilar.

Hozirgi kunda ta'limni tashkil etishda rol o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarining atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oishrib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rol o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi.

O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorlashni ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

“Ba’zi talabalar ma’ruzalarda foydalaniladigan an’anaviy ta’lim usullaridan qoniqib o‘qiydi, ba’zilari amaliyotni ma’qul ko‘radi, ba’zilari esa ilmiy-tadqiqot ishlarni, muammoli vaziyatlarni, katta chaqiriqli ta’lim usullarni xush ko‘radi va o‘shanga javob beradi. Talabalar turli xil usullar orqali ta’lim olishi o‘ta muxim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklariniko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega.

Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchi-talabalarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo‘nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklariniko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchi-talabalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o‘rgatish, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi.

Tadqiqot dorzarbligi shundaki o‘qituvchi darsda o‘yinli usullar hamda vositalar bilan olib borsa auditoriyada o‘tirgan o‘quvchilarning yodidan uzoq vaqt ko‘tarmaydigan darajada qoladi, hamda qaysi paytda so‘ralsa ham o‘sha javob berishga harakat qiladi. O‘quvchi birinchi navbatda nima esda qoladi albatda ko‘rgan va eshtgan hayotiy voqealikka ishonadi va shunga qiziqadi bu o‘z navbatida fanga ham shunday qiziqishlari va o‘zlashtirishlari namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi bu didaktik o‘yinlarni foydalanar ekan demak uning odiydan murakkab prinsiplariga amal qilishlari lozim, albatda.

**Ishning maqsadi va vazifasi:** Dars jarayonida o`quvchi-talabalarga ma'qul shart-sharoitlarini yaratish, ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalarning qo'llashda o'quvchilarning tasavvurini oshirib darsning samaradorligiga erishish. Darslarni olib borish metodikasini didaktik o'yinli texnologiya asosida ishlab chiqish.

1. "Pedagogika. Psixologiya" faniga oid adabiyotlarni o'rganish va fanning mazmunini aniqlab , fanning tanlab olingan mavzularini chuqur o'rganish.
2. Fanning tanlab olingan mavzularini o'qitishda didaktik o'yinli usullarni qo'llab, dars samaradorligiga erishish.
3. Mavzularni o'qitishda B.Blum taksonomiyasi asosida o'quv maqsadlarini aniqlash.
4. "Pedagogika. Psixologiya" fanidan tanlab olingan mavzularning o'qitish bo'yicha texnologik xaritasini yaratish.
5. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo'yicha qo'yilgan maqsad yo'lidagi izlanishlar , olingan natijalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish.

**Ishning yangiligi:** Bu bitiruv malakaviy ishida "Pedagogika. Psixologiya" fanidan didaktik o'yinli texnologiyalardan birinchi marta foydalanildi va didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish metodikasi ishlab chiqildi.



# **I-BOB. PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA” FANIDAN “MULOQOT PSIXOLOGIYASI” MAVZUSINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. “Pedagogika. Psixologiya” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari va o‘qitish xususiyatlari**

Fanni o‘qitishdan maqsad-talabalarga pedagogika va psixologiya sohalariga oid, xususan, psixika va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlarini o‘rganish, pedagogika fani, tarbiya va ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish, ta’lim oluvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga oid bilimlar berish hamda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga shaxs psixologiyasi va uni o‘rganish, o‘z-o‘zini boshqarish, ta’lim va tarbiya jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash, ta’lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash asosida o‘quv mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarishga o‘rgatishdan iborat.

## **1.2. «Psixologiya. Pedagogikasi » fanni o‘zlashtirgan talabaning malakaviy darajalari**

«Pedagogika.Psixologiya» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalarini; psixologiya fanining fanlar tizimidagi o‘rni va rolini; psixologiyaning sohalarini; shaxs psixologiyasiga oid asosiy tushunchalarni; shaxs rivojlanishi qonuniyatlarini; shaxsning bilish jarayonlarini; psixologiyada faoliyat tushunchasini; muloqot vositalarini; shaxsning hissiy-irodaviy xususiyatlarini; shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini; pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini; “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmuni, maqsadi va vazifalarini; pedagogikaning asosiy kategoriyalarini; tarbiya tamoyillari, shakllari, usullari va vositalarini; ta’lim tamoyillari, shakllari, usullari va vositalarini; O‘zbekistondagi uzluksiz ta’lim tizimi tamoyillarini; reyting tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini; ta’lim berishning didaktik vositalarini ***bilishi kerak;***
- talabalar pedagogika va psixologiya sohasiga oid adabiyotlarni mustaqil
- o‘rganish va tahlil qilish; pedagogika va psixologiyaning eng sodda tadqiqot usullaridan foydalanish; o‘z-o‘ziga psixologik jihatdan baho berish; o‘z temperamenti, xarakteri, qobiliyatlari haqida bilish; bilish jarayonlarini boshqarish; ta’lim va tarbiya berish usullarini tanlash; talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini reyting tizimi asosida baholash ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;***

- talabalar psixologik treninglar o'tkazish; tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni boshqara olish; o'zining bilish jarayonlari xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishda maxsus metodikalardan foydalanish; o'z-o'zini boshqarish; o'z-o'ziga psixologik yordam ko'rsatish; ta'lim mazmuniga oid hujjatlarni tahlil qilish; ma'ruza matnini tuza olish; tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish; joriy, oraliq va nazorat topshiriqlarni ishlab chiqish; didaktik vositalardan foydalanish *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

### 1.3. “Pedagogika. Psixologiya” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va aloqadorligi

Ushbu fan 5-6–semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi, huquqshunoslik, falsafa, ma’naviyat asoslari, dinshunoslik), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (informatika va axborot texnologiyalari) umumkasbiy fanlardan (yosh fiziologiyasi va gigiyena) yetarli bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish talab yetiladi.

### 1.4. “Pedagogika.Psixologiya” fanidan ajratilgan soatlar taqsimot

№	Ma’ruza mavzulari	Soatlar
1	Psixologiya fanining predmeti vazifalari va tadqiqot metodlari	2
2	Shaxs psixologiyasi	2
3	Shaxsning bilish jarayonlari	2
4	Shaxs va uning faoliyati	2
5	Muloqot psixologiyasi	2
6	Shaxsning hissiy- irodaviy xususiyatlari	2
7	Shaxsning individual- psixologik xususiyatlari	2
8	Zamonaviy ta’lim –tarbiya va uning mohiyati. Pedagogika faninig predmeti, maqsadi va vazifalari	2
9	“Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi.	2
10	Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya.	2
11	O‘quv –tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari. Tarbiyada shaxs rivojlanishi	2
12	Ijtimoiy oila asoslari	2
13	O‘quv faoliyatini tashkil qilish shakllari va ta’lim sifatini baholash. Didaktika.	2
	<b>Ja’mi</b>	<b>26</b>

### Amaliy (seminar) mashg'ulotlari

№	Seminar mavzulari	Soatlar
1	Psixologiya fanining predmeti va rivojlanish bosqichlari	2
2	Shaxs diagnostikasiga oid psixologik testlar (tashqi dunyoga moslashganlikni aniqlash testi, shaxs ichki imkoniyatlarini aniqlash testi, oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar)	2
3	Shaxsning bilish jarayonlarini rivojlantirishga oid mashqlar	2
4	Shaxsning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlarini aniqlash usullari	2
5	Muloqot psixologiyasiga oid testlar. Kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash usullari ("Kommunikativ qobiliyatingiz qay darajada" testi )	2
6	Shaxsning xissiy- irodaviy xususiyatlarini aniqlash testlari.	2
7	Shaxs temperamentini o'rganish metodikasi. Temperamentni aniqlash usullari. Shaxs xarakterini aniqlash testlari (psixogeometrik shakllar va shaxs xarakteri).	2
8	Zamonaviy ta'lim –tarbiya va uning mohiyati. Pedagogika faninig predmeti, maqsadi va vazifalari	2
9	"Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi.	2
10	Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya.	2
11	O'quv –tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari. Tarbiyada shaxs rivojlanishi	2
12	Ijtimoiy oila asoslari	2
13	SHarq mutafakkirlarining oila xususida falsafiy qarashlari.	2
14	O'quv faoliyatini tashkil qilish shakllari va ta'lim sifatini baholash. Didaktika.	2
	<b>Jami</b>	<b>28</b>

## 1.5. “PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA” FANINING MAZMUN VA MOXIYATI

### 1.5.1. “MULOQOT PSIXOLOGIYASI” MAVZUSINING MAZMUN VA MOXIYATI

#### Reja:

1. Muloqot –psixologik faoliyat sifatida.
2. Muloqotning turi va insoniy munosabatlar psixologiyasi.
3. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni.
4. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari.
5. Muloqot va uni o‘rganish muammolari.



#### Mavzu yuzasidan tayanch so‘zlar:

Muloqot,verbal ta’sir, noverbal ,paralingvistik, ta’sir, tinglash texnikasi, aktiv xolat, o‘ychan jimlik, IPT.

**Muloqot – psixologik faoliyat sifatida.** Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o‘rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni- jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojini qondiradi, shuningdek har bir inson uchun uning ahamiyati kattadir.

Psixologik ta’limotga muvofiq odamning shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etishi uzoq muddatli va murakkab jarayon hisoblanadi. Odamning shaxs sifatida kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (odam yashab turgan sharoit), aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya bilan birga uning boshqa shaxslar bilan muloqotlarining ham muhim ahamiyati bor.

Tabiiyki, shaxs o‘zi yashab turgan jamiyat odob-axloq normalari qurshovida hayot kechiradi. SHunday ekan, uning ma’naviy olami mazmuni ijtimoiy muloqotlari mohiyati bilan izohlanadi. Shaxsning ijtimoiy muloqotlari qanchalik boy va mazmundor bo‘lsa, uning ma’naviy olami shu qadar yuksak bo‘ladi.

Mustaqillik tufayli respublikamizda yangi mazmundagi ijtimoiy muhit yuzaga keladi. Buning natijasida inson shaxsi oldiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgardi, uning muloqotlari mazmuni va doirasi ham o‘zgacha bo‘lib qoldi.

Inson shaxsi yosh jihatdan o‘sgan sari uning muloqot doirasi ham kengaya boradi. U o‘zining barcha orzu va istaklarini aloqa orqali ro‘yobga chiqaradi. SHuni ham hisobga olish kerakki, shaxs muloqotlarining mazmuni uning yoshi ulg‘ayishi bilan bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Agar yosh bilan bog‘liq holda olib qaraladigan bo‘lsa, shaxs muloqotlarining eng murakkab va mazmunli davri uning mehnat faoliyati bilan bog‘liq davridir. Bu davr muloqotlarida shaxsning

insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, baynalminalchilik, jamoatchilik kabi yuqori tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Bu kabi axloqiy tuyg‘ularda ifodalangan mazmun shaxs muloqotlariga sayqal beradi, uning emotsional ta‘sirini kuchaytiradi, muloqot jarayonini mazmundor qiladi va undan tomonlar ko‘zlagan maqsadni amalga oshiradi.

Yana bir muhim tomoni shundaki, faqat muloqot yordami bilangina shaxs o‘zining ishlab chiqaruvchilik faoliyatini ro‘yobga chiqaradi, boshqalarning bu muhim faoliyati mahsuldorligini ta‘minlashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Istagan jamoadagi singari oliy ta‘lim tizimida ham shaxslararo muloqotlarning g‘oyat murakkab ko‘rinishlari bor. Bu g‘oyat muhim muloqotlarni umuminsoniy axloq talablari nuqtai nazaridan davr axloqiy sifatlariga mos tushadigan va mazmunan unga zid bo‘lgan yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Agar muloqotlar o‘zaro ishonch, odillik, do‘stlik, g‘amxo‘rlik, hurmat va e‘zoz-e‘tiborga asoslansa, ijobiy hissiyotlar manbai sifatida xizmat ko‘rsatadi. Beodoblik, qalloblik, g‘araz, hurmatsizlik va ishonchsizlik kabi yo‘nalishda bo‘lsa, salbiy hissiyotlar manbai mazmuniga ega bo‘ladi. Muloqotlar mazmuni shaxslararo munosabatlar mohiyatini ifodalaydi.

Shaxslararo muloqotlar guruhdagi talabalarning bir-biri bilan (guruh muhitida), boshqa guruhlar va kurslar talabalari bilan o‘qituvchilar, fakultet yoki bo‘lim rahbarlari, o‘qimaydigan do‘stlari, oila a‘zolari, qarindosh va og‘a-inilar bilan bo‘ladigan muloqotlarni o‘z ichiga oladi. Bu muloqotlar jarayonida talaba shaxsining qobiliyatlari, qiziqishlari, diqqati, xotirasi, xayoli va tafakkuri kabilar o‘z aksini topadi.

Muloqotlar tizimida o‘qituvchi va talabalararo muloqotlarning roli kattadir. Bunday muloqotlar ularning jonli nutqi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon birining bilim berish (o‘qituvchi), ikkinchisining shu bilimlarning idrok etishini (talaba) ta‘minlashni amalga oshirish funksiyasini ado etish vazifasini bajaradi.

**SHuning uchun ham** har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si, uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

**Muloqotning turi va insoniy munosabatlar psixologiyasi.** Muloqotning turi turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita “yuzma - yuz” bo‘lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, internet, faks va shunga o‘xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do‘stona bo‘lishi; sub‘ekt - sub‘ekt tipli (diologik, sheriklik) yoki sub‘ekt - ob‘ektki (monologik) bo‘lishi mumkin.

*Biz ko‘z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o‘sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo‘lgan damlarimiz esda holsa, iz holsa, demak, bu muloqot uslubiga bog‘liq. Pedagog kommunikativ muloqotini mahsuldor bo‘lishi uchun u pedagogik ta‘sir kuchining tizimlarini, uning har bir*

*qismini bilishi zarur. Dars jaraènida o‘qituvchi qaysi usulni qo‘llaètganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun pedagog ikkita muammoni hisobga olishi: - o‘zining hatti-harakatini to‘g‘ri tashkillashtirishi; - kommunikativ ta‘sir samaradorligini ta‘minlashi zarur. Pedagogik faoliyat jaraèidagi muloqotning quyidagicha tavsiflash mumkin: 1) o‘quvchi-talaba va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli); 2) pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo‘lgan muloqot tizimi;*

*3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni echishda namoèn bo‘ladigan muloqotning vaziyatli tizimi. Pedagog va ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik ta‘sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin: a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari ; b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar tabiati; v) pedagogning ijodiy individualligi;*

*g) o‘quvchi-talabalar jaoasining xususiyatlari.<sup>1</sup>*

SHuningdek, muloqotning rasmiy va norasmiy turlari mavjud. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning qo‘l ostida ishlayotgan xodimlari bilan muloqoti, o‘qituvchining talaba bilan muloqoti va x.k. Norasmiy muloqot - bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o‘sha suhbatdoshlarning fikr-o‘ylari, maqsadlari, emotsional munosabatlari bilan begilanadi. Masalan, do‘stlar suhbat, uzoq safarga chiqqan yo‘lovchilar suhbat, oiladagi suhbat va x.k. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma‘naviy jihatdan rag‘batlantiriladilar.

Insoniy munosabatlar shunday o‘zaro ta‘sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani sari, ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular orasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki “yarimta jumladan” ham fikr ayon bo‘ladigan bo‘lib qoladi, ayrim xollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig‘iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig‘izlik oilaning barcha a‘zolari o‘rtasida emas, uning ayrim a‘zolari o‘rtasida bo‘lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va x.k.).

O‘zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko‘zlaydigan asosiy maqsadlari - o‘zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo‘lsa, “jozibasi”, betakrorligi shundaki, o‘zaro bir xil til

---

<sup>1</sup> Кан-Калик. Учителю о педагогическом общении. 97-бет.

topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan xol - ahvol so'radigiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. YA'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma - xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

**Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.** Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. SHuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir- birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol-ahvol so'raydi. SHunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni xis qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, "mauglilar" biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab

tadqiqotlarda izolyasiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, xissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, xissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, havotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish xislarini keltirib chiqaradi. SHunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. "Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim..."

SHunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

**Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari.** Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir- birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

*Verbal ta'sir* - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni hojlaydi.

*Paralingvistik ta'sir* - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. SHunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay



darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan “Albatta bajaraman!”, desa ishonamiz, albatta.

*Noverbal ta’sir*-uning ma’nosi “nutqsiz”dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o’rinlari, xolatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita xis qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o’rtog’ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, “Ko’rganimdan biram hursandman”, desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta’sir ko’rsatmoqchi bo’lishganda, dastavval nima deyish, qanday so’zlar vositasida ta’sir etishni o’ylar ekan. Aslida esa, o’sha so’zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o’ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko’ra, birinchi marta ko’rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo’lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta’sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o’zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to’g’ri: “Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi”.

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko’proq ta’sirga ega bo’lishi sheriklarning rollariga ham bog’liq. Ta’sirning tashabbuskori - bu shunday sherikki, unda ataylab ta’sir ko’rsatish maqsadi bo’ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta’kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o’rnidan turib kutib oladi, iltifot ko’rsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq so’raydi va so’ngra gapning asosiy qismiga o’tadi.

Ma’lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o’zaro mosligi, bir-birini to’ldirishiga bog’liq ekan. Noto’g’ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o’rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so’zlardan foydalanib, ta’sirchan gapirishga o’rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi “Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo’lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo’ladiganlar 35-40% oylik maoshlarini odamlarni “tinglaganlari” uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko’proq foyda keltirarkan.

**Muloqot va uni o'rganish muammolari.** Hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muxandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professional mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. SHuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa erda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'hshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: so'zma-so'z qaytarish va boshqacha talqin etish. *Birinchi*, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab - quvvatlashni bildiradi. *Ikkinchi* usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bundan tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, "yo'g'-e?", "nahotki?", "qaraya?", "yasha!" luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. CHunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan "teskari aloqani" olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. SHuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

*Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi: aktiv xolat.* Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlari bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

*suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish.* Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.

*o'ychan jimlik.* Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. SHuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi *ijtimoiy psixologik trening (IPT)* deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi orta

Demak, amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko'rinishi bo'lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo'ladigan kommunikativ malaka, ko'nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Treninglar mobaynida guruhviy munozaralar, rolli o'yinlarning eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Muloqotga umumiy ta'rif bering.
2. Muloqot turlarini sanab bering.
3. Tomonlarning munosabatdank o'zlaydigana sosiy maqsadlari nimadan iborat?
4. Insoniy munosabatlar psixologiyasi tushunchasini izohlang
5. Psixologik ta'sirning asosiy vositalari qaysilar?
6. IPT tushunchasini izohlang.
7. Professional tinglash texnikasi turlarini sanang.
8. Muloqotning psixologik vositalari haqida tushuncha bering.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Klimov E.A. Psixologiya professionala. - M., 1997g.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press 1999 g.
3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent "YAngi asr avlodi" 2008y.
4. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. T.: 2000y.
5. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz) - Vazirlik sayti
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Vazirlik sayti

## 1.5.2. “SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI” MAVZUSINING MAZMUN VA MOXIYATI..

### Reja:

1. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi
2. Shaxs iqtidori. Qobiliyatlardagi tug‘ma va orttirilgan sifatlar
3. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari
4. Xarakter va shaxs.



**Mavzu yuzasidan tayanch so‘zlar:** Individuallik, qobiliyat, temperament, xarakter, irodaviy sifatlar, emotsiyalar, iqtidor, iste’dod, layoqat, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

### **Shaxs iqtidori. Qobiliyatlardagi tug‘ma va orttirilgan sifatlar.**

Odamlarning o‘quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o‘ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o‘sha insonning o‘zi ham qilgan har bir harakatidan o‘zi uchun naf ko‘radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko‘nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog‘liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo‘lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo‘lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko‘proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rganiladi.

*Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqat nerv tizimsining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibida ekanligi, bu hodisa barcha morfologik va fiziologik sifatlari singari umumiy genetiga qonunlariga bo‘ysunish farazining haqqoniyligini dalillaydi. F.Galtonning (Angliya) irsiyat qonunlari to‘g‘risidagi g‘oyasi qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi, chunki unda dalilga muhtoj juda ko‘p o‘rinlar mavjuddir. SHuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyatdan emas, balki turmush muhitining nasldan-naslga o‘tishidan qidirish maqsadga muvofiqdir. Agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatining taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlariga bo‘ysunishi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. YUqoridagi mulohazalarga asoslangan holda qobiliyat va layoqatlar muayyan tabiiy zaminga bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in‘omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho (qimmatli) mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko‘nikmalarni tarkib*

*toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir. SHuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta'lim tizimiga bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tish muhim ahamiyatga ega.*<sup>2</sup>

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan - oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l - oyoqlarning biologik va fizilogik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'hshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. SHuni ham unutmazlik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga

---

<sup>2</sup> Myers, D. G. Psychology. HopeCollege. Holland, Michigan, 2010. - P. 154p.

layoqatsiz, qobiliyatsiz ko‘rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o‘z vaqtida to‘g‘ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

SHuning uchun ham har bir ongli inson o‘zidagi qobiliyat va zehni ilk yoshlikdan bilib, o‘sha o‘zi yaxshi ko‘rgan, “yuragi chopgan” ish bilan shug‘ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o‘stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Iqtidor - insonning o‘z hatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub’ektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo‘lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo‘lib, o‘zlari shug‘ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba’zi o‘ta iste’dodli, lekin kamharakat kishilardan ko‘ra jamiyatga ko‘proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste’dod sohibi bo‘lish imkoniyati bor, zero iste’dod - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o‘z qobiliyatini takomillashtirib borish yo‘lida barcha qiyinchiliklarni engish va irodasi butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo‘lga kiritiladi.

**Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.(Temperament tiplarini kirgizing)** Shaxsning individual xususiyatlari deganda shaxsning kuyidagi bir biridan fark kilishiga imkon beradigan kuyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, kobiliyat.

Psixikaning individual jixatdan uziga xos, tabiiy jixatdan shartlashilgan dinamik kurinishlari majmui kishining **temperamenti** deb ataladi.

Temperament lotincha temperamentum – narsalarning tegishli nisbati degan suzdan olingan. Temprament xaqida dastlab eramizdan oldingi beshinchi asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi ikkinchi asrda yashagan Galen, uninchi asrda yashagan ibn Sino va boshqalar o‘z qarashlarini bildirganlar. Galen birinchi bulib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning 13 turini sanab utgan. Keyinrok vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issik va sovuk turini, bu odamning rangi, qoni mikdori, quyuq yoki suyuqligiga bogliqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliy nerv tizimi va uning xillari bilan boglikligi asos kilib olinib, 4 tipi borligi kabul kilingan. Bu temperamentning antik davr klassifikatsiyasiga nomi bilan uxshash bulishi kabul kilingan.

**Sangvinik** – qon so‘zi bilan boglik bulib, serxarakat, kuchli ta’sirlanish, muvozanatsiz bo‘lish nazarda tutiladi.

**Xolerik**–sarik ut organizmda ustun mikdorda bulishi asos kilib olinib, ta’surotni tez kabul kilib olish, kuchli kuzgolish, terisiga sigmaydigan shoshkalok odam xususiyati xisoblanadi.

**Flegmatik** – organizmda shilimshik modda flegma miqdori kupligi bilan ifodalanadi. Bu tipdagi odam ta'surotni bir muncha sekin kabul kiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga etkazib bajarishga layokatli tip.

**Melanxolik**–qora o't miqdori bilan bog'liq deb, hisoblanadi. Bu tipdagi odam «og'ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo'layotgan xodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyoni suv bossa, tupigiga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana kup marta tadbiiqqilinib, yana shu turt tip nomi saqlanib qolgan.

Temperamentning 4 tipi bor:

**Xolerik** – «jangovar, jushkin, oson va tez ta'sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). CHakkon, tez xarakat kiladi, kattik va tez gapiradi, uzini tutib turishi kiyin, bazan xato javob kaytaradi.

**Sangvinik** – xarakatchan, muvozanatli tip. YAngi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, uz urnini, rolini tez almashtiradi, begaraz, kek saklamaydigan tip. («Bir kop yongok»).

**Flegmatik** – xissiyotlari sekin paydo buladi, ammo barkaror va davomli buladi. U vazmin va yuvosh, uning jaxlini chikarish kiyin, lekin jaxli chiksa tuxtatish xam kiyin, kasoskor, ginachi.

**Melanxolik** – reaksiyalari kupincha kuzgovchining kuchiga tugri kelmaydi, lokayd, lanj, uzini tez yukotib kuyadi, biror ishda tashabbuskorlik kursatmaydi. Xissiyotlari juda sekin paydo buladi.

SHulardan kelib chiqqan xolda, shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni o'stirishda ayni shularga e'tibor berish kerak. Masalan, ba'zilar xoleriklarga o'xshash qiziqqon, tezkor bo'lishadi. Uning mehnat jarayonidagi ishini kuzatadigan bo'lsak, faollik, ishni tez bajarishga layoqat ijobiy bo'lsa, uning sifati, chala tashlab ketish havfi, ba'zi tomonlariga yuzaki qarashi kishini o'ylantiradi. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, hayotda sof temperament ham bo'lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas. har bir tipning o'ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo'ladi.

**Xarakter va shaxs.** Kundalik hayotimizda tilimizda “xarakter” so'zi eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan. Uni biz doimo birovlarga baho bermoqchi bo'lsak, ishlatamiz. Bu so'zning ma'nosini olimlar “bosilgan tamg'a” deb ham izohlashadi. Tamg'alik alomatlari nimada ifodalanadi o'zi?

Xarakter - shaxsdagi shunday psixologik, sub'ektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi. Demak, “munosabat” kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F. Lomovning ta'biricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o'rganish katta ahamiyatga ega.

Munosabatlarning xarakterdagi o‘rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajaratadi:

a) emotsional - kognitiv - borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional xis qilishi va o‘zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;

b) motivatsion - irodaviy - ma’lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma’lum ma’no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning xissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi.

Mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L. Rubinshteyn shaxsning o‘ziga xosligi va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi;

Munosabatlar va yo‘nalish shaxsdagi asosiy ko‘rinishlar sifatida - bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi.

Qobiliyatlar ana shu tilak-istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida - bu odamning nimalarga qodir ekanligi.

Xarakter imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg‘un, barqaror tendensiyalar, ya’ni bu odamning k i m ekanligi.

Bu nuqtai nazardan qaraganda ham, xarakter shaxsning “tanasi”, borligi, konstitutsiyasidir. Xarakterning boshqa individual psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu xususiyatlar ancha o‘zgaruvchan va dinamik, orttirilgandir. SHuning uchun ham maktabdagi ta’limdan oliy o‘quv yurtidagi ta’limga o‘tish faktining o‘zi ham o‘spirinda ma’lum va muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Umuman, konkret shaxs misolida olib qaraydigan bo‘lsak, har bir alohida ob’ektlar, narsalar, xodisalarga mos tarzda xarakterning turli qirralari namoyon bo‘lishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, uyda (katta o‘zbek oilasi misolida oladigan bo‘lsak) katta yoshli ota-onalar oldida o‘ta bosiq, ko‘nuvchan, har qanday buyurilgan ishni e’tirozsiz bajaradigan kishi, o‘z kasbdoshlari orasida doimo o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lgan, gapga chechan, kerak bo‘lsa, qaysar, dadil bo‘lishi, ko‘chada jamoatchilik joylarida beg‘am, loqayd, biron bilan ishi yo‘q kishiday tuyulishi, o‘ziga nisbatan esa o‘ta talabchan, lekin egoist, o‘z-o‘ziga bahosi yuqori bo‘lishi mumkin. Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning borliqdagi ob’ektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun ham psixologiyada xarakterning quyidagi tizimi e’tirof etiladi:

Mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladigan xarakterologik xususiyatlar - mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, mas’uliyat, dangasalik, qo‘nimsizlik va boshqalar.

Insonlarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xarakterologik sifatlar - odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, muloqatga kirishuvchanlik, altruizm, g‘amho‘rlik, rahm - shafqat va boshqalar.



O‘z-o‘ziga munosabatga aloqador xarakterologik sifatlar - kamtarlik, kamsuqumlilik, mag‘rurlik, o‘ziga bino qo‘yish, o‘z o‘zini tanqid, ibo, sharmu - hayo, manmansirash va boshqalar.

Narsalar va xodisalarga munosabatlarda namoyon bo‘ladigan xususiyatlar - tartiblilik, oqillik, saronjom - sarishtalik, qo‘li ochiqlik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Xarakter - tarixiy kategoriya hamdir. Buning ma‘nosi shuki, har bir ijtimoiy - iqtisodiy davr o‘z kishilarini, o‘z avlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda o‘z aksini topadi. Masalan, o‘tgan asr o‘zbeklari, XX asrning 50 - yillaridagi o‘zbeklar va mustaqillik yillarida yashayotgan o‘zbeklar psixologiyasida farq avvalo ularning xarakterologik sifatlarida aks etadi. Aminmizki, XXI asrning yosh avlodlari yanada zukkorroq, irodaliroq, ma‘rifatli va ma‘naviyatliroq bo‘ladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlar yangi asr avlodining ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon bo‘lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir.

Avvalo xarakter insonning hatti- harakatlari va amallarida namoyon bo‘ladi - odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning kim ekanligidan darak beradi.

Nutqining xususiyatlari (baland tovush bilan yoki sekin gapirishi, tez yoki bosiq, emotsional boy yoki jonsiz) ham xarakterning yo‘nalishini belgilaydi.

Tashqi qiyofa - yuzining ochiq yoki tund ekanligi, ko‘zlarining samimiy yoki johilligi, qadam bosishlari - tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi - viqorli yoki kamtarona, bularning hammasi xarakterni tashqaridan kuzatib o‘rganish belgilaridir.

*Atrofdagi odamlarning xarakterini tushunish umidida va yoki o‘z dardlariga malham izlash maqsadida millionlab insonlar soxta psixologiyaga murojaat qiladilar. Bu yo‘lda ular radio-muloqot dasturlarida berib boriladigan maslahatlarga quloq tutadilar, allaqanday ruhiy kuchlar haqidagi maqolalarni o‘qiydilar, gipnoz yordamida chekishni tashlashni xohlovchilarning maxsus yig‘ilishlarida qatnashadilar, mustaqil ravishda shug‘ullanish uchun turli xil kitoblar va veb-saytlardan tushlar ta‘biri, jo‘shqin ishqiy munosabatlarning siri va baxtga eltuvchi kabi mavzular haqida ma‘lumot izlaydilar. Boshqa birovlar esa hayotiy psixologik haqiqatlardan ilhomlanib, hayrat ila savol beradilar: «Rostdan ham yangi tug‘ilgan chahaloq va ona o‘rtasida ilk daqiqalarda kindik orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa bo‘ladimi? Odam ulg‘ayib, bolalikda duch kelgan jinsiy zulm haqidagi xotiralari «tiklangach» – o‘sha vahshiylarni javobgarlikka tortish kerak bo‘ladimi? Oiladagi ilk farzand boshqa farzandlarga nisbatan tirishqoqroq bo‘ladimi? Psixoterapiya muoalajalari davolashga qodirmi? SHu kabi savollarga*

*duch kelganda, ilmsizlikdan hosil bo‘lgan fikrlar va ilmiy xulosalarni qanday qilib bir-biridan farqlab, ajrata olamiz? Insonlarning fikrlash, his qilish va xatti-harakati sabablarini tushunish uchun qanday qilib psixologiya fanidan mukammal foydalanishimiz mumkin?*

*Psixologiya faniga bo‘lgan zaruriyat: Nega ilmiy yondashuvdan hosil bo‘lgan xulosalar intuitsiya va umumiy odatiy ong orqali hosil bo‘lgan xulosalardan ko‘ra ishonchliroqdir? Ba’zi insonlar o‘ylaydilarki, psixologiya fani odamlar shundog‘am biladigan narsalarni shunchaki ilmiy tilda qog‘ozga tushurish bilan shug‘ullanadi: «Psixologiya fani orqali kritik tahlil qilishning nimasi yangilik bo‘lib holdai – mening buvijonim allaqachon bilgan narsalarni qiziqarli metod va tajribalaring orqali isbotlaysan va buning uchun sen haq olasan, xolosmi?». Bu o‘rinda boshqalar esa intuitsiyaga ishonadilar: «Har birimizning tub-tubimizda eng ishonchli yo‘lni ko‘rsatadigan instinkt va yurakdan his qiladiganimiz, yo‘lboshchimiz bor – biz shunchaki o‘sha tuyg‘ularga erk bersak, bo‘ldi», – deya maslahat bergan edi Britaniya shahzodasi CHarlz<sup>3</sup>*

Xarakter va uning rivojlanishi, namoyon bo‘lishi uchun umumiy qonuniyat shuki, u tashqi muhit ta’sirida, turli xil munosabatlar tizimida shakllanadi va sharoitlar o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Har bir kasb - hunar o‘zining talablari majmui - professogrammasiga egaki, u shu kasb bilan shug‘ullanayotganlardan o‘ziga xos psixologik qirralar va xossalar bo‘lishini taqozo etadi (psixometriya). SHuning uchun ham vrachning, o‘qituvchining, muxandisning, harbiylarning, artistlarning va boshqalarning professoional sifatlari haqida alohida gapiriladi. Ana shu kasb sohiblari, ularning ish mobaynida ko‘rsatadigan individualligi ichida esa xarakterologik o‘ziga xoslik katta ahamiyatga ega va buni nafaqat shaxsning o‘zi, balki uni o‘rab turgan boshqalar ham yaxshi bilishlari kerak.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi izoxlab bering.
2. Shaxs iqtidori. Qobiliyatlardagi tug‘ma va orttirilgan sifatlari nima?
3. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlarini aytib bering.
4. Xarakter va shaxs.
5. Temperament va uning turlari?
6. Temperament, xarakter, kobiliyatni farqini izoxlang.
7. V.S.Merlin Munosabatlarning xarakterdagi o‘rmi xususida fikrlarini izoxlab bering
8. Mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladigan xarakterologik xususiyatlar nimalardan iborat.

---

<sup>3</sup> David G. Myers Psychology, © 2010 by Worth Publishers 48-59 betlarida

9. Psixologiyada xarakterning qanday tizimlari e'tirof etiladi?
10. Xarakterning yo'nalishini belgilovchi omil nima?

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Klimov E.A. Psixologiya professionala. - M., 1997g.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press 1999 g.
3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent "YAngi asr avlodi"2008y.
4. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. T.: 2000y.
5. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)- Vazirlik sayti
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Vazirlik sayti

### 1.5.3. “RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA TA’LIM-TARBIYA” MAVZUSINING MAZMUN MOHIYATI

#### Reja:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi ta’limi tizimi
- 2.Chet ellarda kasbga yo‘naltirish ishlari haqida umumiy ma’lumot.
- 3.AQSH da kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida.
- 4.Germaniyada ta’lim tizimi



**Tayanch iboralar:** CHet ellarda kasbga yo‘naltirish, AQSH da kasb-hunarga yo‘naltirish, Germaniyada ta’lim tizimi, Gaydens maktablari, tafakkur ustaxonasi, fransiya ta’limi, yaponiya ta’limi, bakalavriat, magistratura, doktorontura

#### 1.Chet ellarda kasbga yo‘naltirish ishlari haqida umumiy ma’lumot.

O‘zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko‘p bosqichli ta’lim tizimiga o‘tmoqda. Ta’lim texnologiyalari jahon andozalariga mos keladimi, ilg‘or tajribalar ta’lim texnologiyalariga kirib bormoqdam? - degan savol hammamiz uchun o‘ta muhimdir. Biz foydalanadigan ta’lim texnologiyalari shaxsni rivojlanishiga, mustaqil ishlashga o‘rgatishi zarur. Chet el tajribalarini o‘rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerak. Bu borada bir qator chet el tajribalari, xususan Isroil davlati tajribalari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo‘ladi. **Isroil davlatida ta’lim** 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi): a) boshlang‘ich ta’lim (1-4 sinflar), b) o‘rta ta’lim (5-9 sinflar), Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo‘yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo‘lib o‘tadi. Natijalari asosida o‘quvchilar o‘zi tanlagan maktab yoki texnologik maktablarda o‘qishni davom ettiradi. v) texnologik ta’lim (10-12 sinflar). O‘quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini beruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. (Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir.) Har yili 12-sinfni tugatgan o‘quvchilarning o‘rtacha 20-40 % attestat oladilar. SHundan keyingi barcha toifadagi ta’lim xizmatlari pullik. O‘n sakiz yoshga kirgan o‘g‘il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi. Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli hammasi universitetga o‘qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o‘qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo‘yicha ishlashi mumkin.

Attestati yo‘qlar texnologik maktablarning 13-14 sinflarida o‘qiydi, lekin istagan sinfdan so‘ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o‘qishni yakunlashi mumkin. 15-16 sinflarda o‘qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va

bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo‘ladi. Bunday sinflarga ega bo‘lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el universitetlari bilan shartnomaga ega bo‘lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi. Isroil davlatida texnologik (kasb-hunar) ta‘limga juda katta e‘tibor qaratilgan va turli -tuman ko‘rinishdagi o‘quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga texnologik maktablar, kollejlari, pedagogik markazlar va boshqalar kiradi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish yoki firmalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mutaxassislik yo‘nalishlariga ega. Masalan: elektronika, kompyuter, ekologiya, qishloq xo‘jaligi, kimyo, grajdan dengiz floti va boshqalar. Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta‘lim texnologiyasi ko‘ra sinflarda o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasiga qarab tabahalarga ajratib o‘qitiladi. Ta‘lim barcha fanlar bo‘yicha hayot va tabiat bilan bog‘lagan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog‘lanishi doimo ko‘zga tashlanib turdi. Oliy ta‘lim tizimi uch bosqichli:

1. Bakalavriatura - 4 yil,
2. Magistratura - 2 yil,
3. Doktorantura - 3 yil.

Bakalavr va magistr uchun o‘qish Isroilda, doktorantura asosan evropa va AQSH da amalga oshiriladi. Isroil davlatida malaka oshirishga asosan ikki guruh omillar ta’sir qiladi:

1. Ijtimoiy-madaniy omillar:

a) jamiyatni ko‘p madaniyatlilik (turli davlatlardan kelgan repatriantlar o‘ziga xos madaniyatga ega); b) turli din vakillarining yirik qatlamlarining borligi (iudeylar, musulmonlar, xristianlar va ularning turli oqimlari); v) turli yillardagi repatriantlarning katta oqimi (50-, 70-, va 90- yillar). 2. Pedagogik omillar: a) texnologik ta‘limga o‘tish; b) o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta‘lim (ayniqsa o‘rta va texnologik ta‘limda); v) o‘quv yurtlarini kompyuterlashtirish davlat dasturi va uning juda yuqori suratlarda amalga oshirilishi; g) mutaxassislarni tayyorlashdagi ko‘p bosqichlilik. Ushbu faktorlar malaka oshirishning mazmunini tashkil etadi va uning samaradorligini, malaka oshirish kelajagini aniqlashda hisobga olinadi. Bu dastur Vazirlik va munitsipialitetlar darajasida boshqariladi. Mutaxassis (bakalavr, magistr, doktor) istagan ko‘rinishdagi o‘quv yurtida pedagog sifatida ishlashi uchun albatta bir yil o‘qib pedagogik faoliyat ko‘rsatish huquqini olishi kerak. Bu o‘qish universitetlarning pedagogik fakultetlarida, pedagogik kollej va markazlarda amalga oshiriladi.

**2.AQSH da kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida.** Pedagoglarning malaka oshirishi ikki toifaga bo‘linadi. 1. Pedagogik ish og‘ir hisoblanganligi uchun tayyorlov sinfi pedagoglaridan tortib universitet professorlarigacha olti yil ishlagandan so‘ng dam olish, o‘zining

professional va pedagogik malakasini oshirish va birorta xobbi bilan shug'ullanish uchun bir yil to'liq ish xaqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi, ya'ni sabatiklga chiqadi (AQSH sistemasi). Bu vaqtda u boshqa joyda ishlashga haqqi yo'q. Pedagog sabatikl davrida albatta malakasini oshirish uchun kurslar eshitadi, individual va guruhlarda maslahatlar oladi, kutubxanalarda va Internet to'rida mustaqil ravishda malakasini oshiradi. 2. Universitet professorlaridan tashqari barcha toifadagi o'quv yurtlarining pedagoglari joriy malaka oshirishlardan o'tib turishi kerak. Buning uchun hafta metodik kun beriladi. Metodik kunda malaka oshirish uchun 2 soatga ekvivalent qo'shimcha xaq to'lanadi. Bu kunda u o'zining professional va pedagogik malakasini oshirish uchun kurslarga qatnashi kerak. Kurslarga har hafta yoki soatlar (mablag') yig'ilganda birdaniga qatnashi mumkin. Kurslar natijasida pedagog kredit to'playdi. Minimal kredit yoki kredit birligi 112 soatga teng. Pedagog 112 soatlik kreditlardan ikkitasini yiqqandan so'ng malaka oshirgan hisoblanib, maoshiga 1,6 % qo'shiladi. Bu jarayon o'suvchi koeffitsient bilan uzluksiz davom etadi va maoshni 30 % gacha oshishiga imkon beradi. Malaka oshirish uchun imkoniyatlar juda katta bo'lib, u malakali mutaxassislar, texnika resurslari va moliyaviy jihatdan ta'minlangan. Ta'limga, ajratilgan mablag'lar juda katta bo'lib, davlat byudjetining 11 % va munitsipalitetlarning 40% gacha byudjetini tashkil qiladi. Bundan tashqari chet ellardagi homiyilar CHet el ta'lim texnologiyalarini o'rganish, ularni tanqidiy tahlil qilish va ular bilan o'z tajribalarimizni boyitish «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur»ni amalga oshirishda o'ta muhimdir. Jahonning etakchi mamlakatlarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish doimiy tadbir sifatida e'tirof etiladi va maxsus fan sifatida o'quv yurtlarida o'qitiladi. Lekin kasbiy faoliyatga yo'llash tizimi hozircha etarli darajada samara berayotgani yo'q. Buning asosiy sababi tizim tarkibidagi nuqsonlar bo'lmay, balki o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ijtimoiy determinizatsiyasidir. Masalan, **Fransiyada** asli kelib chiqishi ziyoli bo'lgan shaxslar odatda farzandlarining umumiy ta'lim litseyida ta'lim olishini ma'qul deb bilishadi, ishchi yoki xizmatchilarning farzandlari esa texnologik va kasbiy yo'nalishdagi litseylarda ta'lim oladilar.

Dunyodagi mavjud maktablarda kasbiy yo'naltirishni tashkil etishda yangi ijtimoiy voqeliklar inobatga olinadi, o'quvchi shaxsining samarali rivojlanishini ta'minlovchi yo'llar izlanadi. Kasbga yo'naltirish jarayonida nafaqat o'quvchilar bilimni boyitish, balki eng avvalo mushohada qila olish qobiliyati va tanqidiy qarashlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga alohida ahamiyat berilishi lozimligi e'tirof etilmoqda. Kasbga yo'naltirish jarayonida ommaviy axborot vositalari faol ishtirok etmoqdalar. Ular vositasida o'quvchilarga doimiy ravishda kasblar va ularning o'ziga xos jihatlari to'g'risida materiallar etkazib beriladi. Tadbirkorlar ham o'quvchilarni kasbga yo'llashga katta qiziqish bilan qaraydilar va xususiy tadbirkorlar maktab o'quvchilarini turli xil faoliyatlarga yo'llash ishida

ta'lim muassasalariga o'zlaricha yordam beradilar. Masalan, AQSHda «Ish yuzasidan hamkorlik», «Maktabni o'z qaramog'iga olish» nomli dasturlar g'oyalariga ko'ra, ishbilarmonlar o'quvchilarga muayyan kasbiy faoliyat yo'nalishini tanlashda yordam beradilar, bir qator maktablarda faoliyat olib boruvchi kasb faoliyatiga yo'naltiruvchi mutaxassislariga mablag' ajratadilar, o'quvchilarning ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlarini tashkil etib, ularni ma'lum kasb yoki faoliyat mazmuni bilan tanishtiradilar. **Italiyalik** ishbilarmonlarning vakillari ham bu borada ijobiy ishlarni amalga oshirmoqdalar. Masalan, «Lombardiyaning omonat kassalari» 14-15 yoshli o'quvchilar uchun iqtisodiy o'yinlar tashkil etadi. O'yinlar ishtirokchilari ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish, byudjetni yaratish, kredit, marketing qilishni o'rganadilar. Natijada ular ishlab chiqarishning zamonaviy sohalari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladilar. O'yin g'oliblariga qimmatbaho sovg'alar topshiriladi. Angliyada maktab va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikka 1987 yilda «London Kompekt» loyihasi g'oyasiga ko'ra asos solingan. Loyihaning maqsadi o'quvchilarga ularning imkoniyat va qobiliyatlariga mos mutaxassislik asoslarini o'zlashtirish hamda ularning ish o'rinlari bilan ta'minlanishlariga ko'maklashishdan iboratdir. Ushbu loyiha asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida 14-16 yoshli o'quvchilardan o'quv fanlari va mutaxassislik asoslarini qoniqarli o'zlashtirish va ikki haftalik amaliyotni o'tish talab etiladi. O'quvchilar ma'lumotlarni yig'adilar. Masalan, YAponiya zavodlari qoshida tashkil etilgan sifat to'garaklarining faoliyati ushbu fikrni tasdiqlaydi. To'garaklarda o'rta maktab bitiruvchilari ishlaydilar, ularning kasbga to'g'ri yo'naltirilganligi ishlab chiqarish sifatini yuqori darajaga ko'tarish uchun xizmat qiladi. AQSHda kasbga yo'naltirish o'quvchilarning kasblar bo'yicha axborotlarga ega bo'lishni ta'minlash, kelajakda maqbul kasbni tanlab, ishga kirishlariga yordam berishdan iboratdir. O'quvchilar turli mutaxassisliklar mazmuni bilan tanishib, mehnat o'qituvchilaridan maslahat oladilar. Kasbga yo'naltirishda «Gaydens» psixologik – pedagogik xizmatining yo'lga qo'yilishi muhim o'rin tutadi. Xizmat tarkibiga sotsiolog, psixolog, o'qituvchi, huquqshunos, shifokor va maktabning boshqa xodimlari kiradi. Ushbu xizmat o'quvchilarning atrofidagi ijtimoiy muhitda o'z o'rnini egallashlariga ko'maklashadi. «Gaydens» xizmati o'quvchilarda qanday sifatlarni rag'batlantirish va rivojlantirish kerak, nimalarni yaxshilash kerakligini aniqlash uchun har bir o'quvchining shaxsi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi shart. Bunday ma'lumotlar «Gaydens»ga o'quvchilar uchun maslahatlar berish imkonini beradi.

### **3. Germaniyada ta'lim tizimi**

Germaniya – ta'lim va kasbga yo'naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlar davlati. Ko'plab Nobel mukofoti laureatlari, yuqori darajadagi ilmiy izlanishdagi yutuqlarga ega bo'lgan, ko'p loyihalarga moliyaviy yordam berib kelayotgan, har xil davlatlardan kelgan o'quvchilarni o'qitadigan davlatdir. Germaniya

Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratida. Mamlakatda o'n oltita federal er mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. SHu sababli federal erlarda maktab ta'limida ayrim farqlar bor. Germaniya va

O'zbekiston ta'lim tizimi taqqosi *Germaniya ta'lim tizimi*

Germaniyada uzluksiz ta'lim tizimi	O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimi
1. Bolalar bog'chasi	1. Maktabgacha ta'lim
2. Boshlang'ich maktab	2. Umumiy o'rta ta'lim
3. Asosiy maktab	3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim
4. Real maktab	4. Oliy ta'lim
5. Gimnaziya	5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (Aspirantura PHD, doktorantura D of scines)
6. Birlashgan maktab	6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
7. Oliy ta'lim	7. Maktabdan tashqari ta'lim
8. Malaka oshirish va qayta tayyorlash	

Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart. Maktab ta'lim tizimi kuyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- boshlang'ich (primarstufe),
- o'rta (sekundarstufe I)
- yuqori (sekundarstufeII)

Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. SHu bilan birga korxonalar va tashkilotlar ham o'z bog'chasiga ega bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tizimi (elementarbereich) 3 yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o'z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda bog'chalarning o'rnini katta. SHu bois ham olmonlar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi. Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. O'qish asosan 4 yil, Berlin va Brandenburgda esa 6 yil davom etadi. Dastlabki 2 yil mobaynida o'quvchilar baqolanmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o'zlashtirish tavsifnomasi beriladi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. 5-6 sinflar bolalarning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda bolalar keyingi ta'lim turiga yo'naltirilishi uchun kuzatuvda bo'ladi. Bolaning boshlang'ich sinflardan keyin qaysi maktab turida o'qishni davom ettirishi



boshlang'ich maktab tavsiyasi, uning o'zlashtirishi hamda ota-onasining xohishlariga bog'liq. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. O'quvchilar fanlarni eng kamida «4»ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladi. Bolalarning deyarli 20 % o'qishni *asosiy maktablarda* (hauptschule) davom ettiradilar. Ushbu maktab asosiy umumiy ta'limni beradi. Asosiy maktabni muvaffaqiyatli tugallash ko'p xollarda dual kasbiy ta'lim tizimiga o'tish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ko'plab xunarlarini o'rganish uchun yo'l ochadi. Bu erda bolalar 9- sinfgacha o'qitiladi. Asosiy maktablarda oliy ta'lim muassasalarida o'qish niyati yo'q bo'lgan, biror bir kasb etagidan tutishni ko'zlagan o'quvchilar ta'lim oladi. Bu turdagi maktablarda bazaviy bilimlar beriladi va asosiy e'tibor amaliy mashg'ulotlarga qaratiladi. Asosiy maktabni tugatgan o'smirlar tugallanmagan o'rta ta'lim haqida shahodatnoma oladi. Ushbu hujjat bilan kasb-hunar maktablari (*berufsschule* yoki *proffesionalschule*)ga kirish mumkin. Bizdagi KXKlariga o'xshab ketadigan mazkur maktablarda talaba muayyan kasb-hunar bo'yicha bilim va tajriba oshiradi. O'quvchilar o'rta ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan *gimnaziyada* (gymnasium) to'qqiz yil 5-13 sinfgacha ta'lim oladi. Real maktabning 10-sinfini tamomlagan yoshlar esa gimnaziyada 3 yil o'qiydi. Mazkur ta'lim dargohida gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o'rgatiladi. O'quvchilar 11 sinfdan tanlagan yo'nalishidan kelib chiqib, asosiy vaqtini bir necha fanni chuqur o'rganishga sarflaydi. Gimnaziya - oliy ta'limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichi. Negaki, gimnaziyaning tugatganlik to'g'risidagi etuklik shahodatnomasi (*abitur*) *universitetga imtihonsiz kirish huquqini beradi*. Ammo etuklik shahodatnomasini olish oson emas. O'quvchiga ushbu hujjatni berishda uning o'n uch yil davomidagi natijalari hamda 4 fan bo'yicha yakuniy imtihon baqolari inobatga olinadi. Olmon zaminida oliy o'quv yurtiga kirish uchun o'n uch yil yaxshi natija bilan o'qish kerak. Ana shundan keyingina universitet yo'llari ochiladi. Ta'lim tizimida umumiy maktablar (*gesamschule*) ham mavjud. Unda yuqorida zikr etilgan maktablar dasturi o'n yil davomida uyg'un holda o'qitiladi, ya'ni o'quvchilar ham gumanitar, ham texnik fanlar yo'nalishida bilim oladi. Umumiy maktab bitiruvchilari ham so'nggi 3 yillik majburiy ta'limni gimnaziyada davom ettiradi. Birlashgan maktab boshlang'ich maktabdan keyin o'tiladigan maktab turlaridan yana biridir. Ushbu maktabda asosiy va real maktablarni bitirgandagi guvohnomalar beriladi. Agar unda gimnaziyaning yuqori sinflari mavjud bo'lsa, u holda etuklik shahodatnomasi beriladi. Germaniyada davlatga qarashli maktablar bilan birga xususiy ta'lim maskanlari ham faoliyat yuritadi. Xususiy maktablar o'rta ta'lim maskanlarining 2 foizini tashkil etadi. O'quv dasturlari an'anaviy maktablardan farq qiluvchi xususiy maktablarni Federal ta'lim va madaniyat vazirligi nazorat qiladi. Xususiy maktablar sanoat, til, kosmetika, gimnastika, uy

xo'jaligi kabi ixtisoslashgan yo'nalishlarda ta'lim beradi. Nodavlat ta'lim maskanlari bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy maktablar uyushmasi (Bundesverband Deutscher Privatschulen)ga birlashgan. SHuningdek, nogiron va aqliy qobiliyati cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar ochilgan. Olmon maktablarida xorijlik fuqarolar ham ta'lim olishi mumkin. Xorijliklar mahalliy shart-sharoitga moslashishi, nemis tilini puxta o'zlashtirishi uchun tayyorlov kurslari tashkil etiladi. Nemis pedagoglari iste'dodsiz o'quvchining o'zi yo'q, deb hisoblashadi.

**Germaniyada maktab ta'limi.** Germaniyada Evropaning boshqa davlatlariga qaraganda *bepul oliy ta'lim olish imkoniyati ko'proq*. Nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida xorijliklar ham nemis universitetlarida tahsil olishi mumkin. YUqorida ta'kidlaganimizdek, mahalliy gimnaziyalarni bitirib, etuklik shahodatnomasi olgan yoshlar universitetlarga imtihonsiz kiradi (Lekin ba'zi yo'nalishlar, masalan, tibbiyot bo'yicha kirish imtihonlari o'tkazilishi ham mumkin). CHel elliklar esa o'qishga kirish uchun nemis tili bo'yicha imtihon (*DSH - Pruefung*)dan o'tadi. *Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakunida davlat imtihoni (statspruefung) topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. YOzgi mavsum aprel-sentabr, qishkisi esa oktabr-mart oylarini o'z ichiga oladi.* Germaniya Geydelberg, Kyoln, Freiburg, Tyubingen kabi qadimiy universitetlar vatani hisoblanadi. 1386 yilda asos solingan Geydelberg universiteti ko'hna qit'aning eng nufuzli oliy ta'lim dargohlari ro'yxatiga kiritilgan. O'rta asrlardayoq ushbu universitetga kirish *evropalik aslzodalarning orzusi bo'lgan*. Germaniyaning mo'jazgina Geydelberg shahrida joylashgan mazkur universitetning nufuzi hozir ham baland. Bu erdan Gegel, YAspers kabi jahon tanigan olimlar, o'nga yaqin Nobel mukofoti egalari etishib chiqqan. Universitet yurisprudensiya, biologiya, kimyo, tibbiyot yo'nalishlarida kuchli kadrlar tayyorlaydi. Bu erda o'qiydigan 25 ming talabaning 12 foizi xorijliklardir. Myunxendagi *Lyudvig-Maksimillian* universiteti Evropani tibbiyot bo'yicha etuk mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Besh asrlik tarixga ega bo'lgan ta'lim maskanida ayni paytda 44 ming talaba tahsil oladi. Kasbiy oliy maktablar yoki institutlar (fachhochschulen) olmon ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida mutaxassislar etkazib beradi. Axen, Bremen, Bonn, Frankfurt, Gamburg, Kyoln, Marburg kabi universitetlarga ham talabgorlar ko'p. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370dan oshiq oliy ta'lim muassasalarida *2 millionga yaqin talaba*, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Olmon yurti chet ellik talabalar soni bo'yicha dunyoda AQSH va Buyuk

Britaniyadan keyingi o'rinda turadi. Germaniya maktablarida kompetentlikni shakllantirishda turli xil interaktiv metodlardan, masalan: *fidbek, jamoali o'qish, hamkorlikda o'qitish, guruhli ishlash, intervyu, mustaqil o'qish, men-sen-bu metodi, svetofor* kabi ko'plab metodlardan foydalanishadi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan.

O'quvchilar fanlarni eng kamida «4»ga o'zlashtirish kerak. **A'lo (sehr gut ), 1 yaxshi (gut ) 2 qoniqarli (befriendigend) 3 etarli (ausrei chend), 4 etarli emas (mange lhaft ) 5 qoniqarsiz (ungengend). 6** Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, etika fanlari o'tiladi. Germaniyada o'qituvchilar ko'p yo'nalishda malaka oshirish va dars berish imkoniyatiga ega.

*Germaniyada ta'lim tizimi markazlashmagan. Umumiy ta'lim standartlari mavjud emas. Germaniyada malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimining o'ziga xos xususiyatlari*

- Kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash instituti maqomiga ega;
- 3 bosqichli: kursning boshlanish davri, oraliq davri, yakunlovchi qismi, lekin muddati 6 oydan 9 oyga o'tkazilgan;
- O'qituvchilar malaka oshirish tizimi 3 turga ega:
  1. *Sirtqi;*
  2. *Masofadan o'qitish;*
  3. *Bevosita o'qitish.*
- YUtuqlari:
- Sirtqi va masofaviy ta'lim haqida ma'lumotlar va ularning qiyosiy tahlili mavjud;
- Tyutor, muallif, maslahatchi rollari va vazifalari haqidagi yangi bilimlarning berilishi;
- Guruhlarda ishlanib, har bir guruh taqdimotining tinglanishi, qo'llab-quvvatlanishi...
- Sifatni mustahkamlashda tashqi evolyusion jarayon;
- Ichki evolyusion jarayon;
- Ta'lim menejmentiga e'tibor berilgan
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilgan;
- Ijodiy muhit yaratilgan;
- Imtihonlarni o'quvchilar o'zlari tanlashadi
- Darsdan tashqari ishlar qiziqarli tashkil etilgan;
- Korxonalarda o'quvchilar uchun shartnoma asosida ishlash imkoniyati yaratilgan;
- Har bir o'quvchiga tarqatma material kelgusi dars uchun berib yuborilishi;
- Javob bera olmagan o'quvchilarni ham o'qituvchi xushmuomalalik bilan to'g'ri yo'naltira olishi;
- Ta'lim maqsadi individuallashtirilganligi;

Mustaqil ravishda fikr yurita oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratilganligi Berlinda har bir maktab mustaqil ravishda o'z rivojlantiruvchi

dasturiga va o'quv dasturlariga ega bo'ladi. Bu dasturlarni standartlar asosida maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqariladi. Bu komissiyada maktab rahbari, maktabda faoliyat ko'rsatuvchi 2 ta fan o'qituvchisi va 2ta ota onadan iborat bo'ladi. Bu komissiya anketa savollari orqali maktabning kuchli, o'rta yoki kuchsiz ekanligi aniqlanadi. Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda maktabni rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqiladi. Bu dasturning amal qilish muddati 5 yil. Har uch yilda maktab ichki nazorat komissiyasi tomonidan dasturni amaldagi faoliyati tekshirilib boriladi (pedagog va ota-onalar tomonidan) va o'gartirishlar kiritilishi mumkin. Tashqi nazorat esa har 5 yilda amalga oshiriladi. Maktab dasturining maqsadi: - *o'qitilayotgan fanlardan tilni rivojlantirish (ingliz, ispan, fransuz)- o'qituvchi va o'quvchilar bilim saviyasini rivojlantirish- o'qitishga o'qitish tizimi metodlarini ishlab chikish (har bir o'qituvchi tomonidan o'quv yili boshlanishida taqdimot qilinadi) - maktab o'quvchilar hohishidan kelib chiqqan holda fanlar xilma-xilligini ta'minlash (o'quv yili boshida amalga oshiriladi) Maktab faoliyatini tekshirish natijasida kamchiliklar aniqlansa 6 oy muhlat beriladi va shu davr ichida bartaraf etiladi.* Informatika fanida asosan dasturlash tillari asosida o'quv mashg'ulotlari olib boriladi. Ular Paskal va delfi dasturlash tillari hisoblanadi. Informatika darslari 2 guruhga bo'linadi. Asosan darslar amaliy kompyuter sinflarida amalga oshiriladi. Dasturga maktab yo'nalishidan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar kiritish mumkin.

### Taqqoslama jadval

Yo'nalishlar buyicha	O'zbekiston	Germaniya-Berlin
Informatika fanini o'qitish holati	5-9 sinflar Kollej, akademik litsey va OTM	5-13 sinflar va OTM
Fanning nomi	5-7 sinflar Informatika (kompyuter savodxonligi) 8-9 sinflar Informatika AL va KHK- informatika, Axborot texnologiyalari	-6 sinflarda –kompyuter savodxonligi 7-13 sinflar – Informatika
Fanning o'qitilish soatlari	5-7 sinflar – 17 soat 8-sinf – 34 soat 9 sinf- 68soat AL va KXX- 120 va 40 soat	1-6 sinflar haftasiga 1 soat 7-10 sinflar haftasiga 2 soat 11-13 sinflar 3 soat Keyingi bosqichlar mutaxassis talabiga binoan
Fan dasturlari	Standart talablari asosida ishlab chiqiladi	Maktab talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladi
O'quv darsliklarining	Har bir sinflar buyicha darsliklar mavjud	Darslik va o'quv qo'llanmalar internet

mavjudligi		materiallari asosida
Texnik ta'minoti	Bir yoki ikkita kompyuter kompyuter sinflari mavjud	Har bir maktab bazasidan kelib chiqqan holda 3-6 sinflar mavjud
Didaktik materiallarning tayyorlanishi	Darslik, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, texnik vaositalar, kompyuter taqdimotlari	Internet materiallari va unda foydalaniladigan platformalar
Baholash usullari	Umumta'lim maktablarida chorak va yakuniy AL va KXX da Joriy, oraliq va yakuniy nazorat	Yillik baholash va imtihon olish

## 1.2. Yaponiyada ta'lim tizimi va xususiyatlari

YAponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. YAponiya uz oldiga ikki vazifani: 1 - boyish, 2-garb texnologiyalarini YAponiya ishlab chikaprishiga kiritsh masalasini kuydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan uzgartirish kerakligini angladi.

1872 yili «Ta'lim xakida» Konun kabul kilindi. Bunda yapon ta'limi garb ta'limi bilan uygunlashtirilgan .1893 yilda kasb ta'limi yunalishidagi birinchi kollej paydo bulgan. 1908 yilda YAponiya boshlangich ta'limni majburiy 6-yillik kilib belgiladi.

1946 yili kabul kilingan konstitutsiya fukorolarning ta'lim soxasidagi xukuk va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi kayd etilgan. Xozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi kuyidagicha: bogchalar, boshlangich maktab, kichik urta maktab, yukori urta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy ukuv yurtlari. Bolalar yoshlariga karab 3,2,1,yillik ta'lim kurslariga jalb kilinadi. YAponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga YAponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, kolgan 30 foizini butun kolgan umri davomida uzlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. YApon ayollari uchun onalik xar doimgidek birinchi urinda turadi. Kupkina yaponkalarning aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning xayotlarining maksadidir.

YApon tarbiyachilarini bolalarni kichik gurux (xan) larga bulib ukitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bulib xisoblanadi. Bu guruxlar uzlarining stollariga, bolalarning uzlari tanlagan shaxsiy nomlariga, (bu bolalarda karorlar kabul kilishda, uzgalar fikrini xurmat kilish, gurux a'zolarini barchasini tashabbuskor bulishga) urgatadi. Bunday usul kichik maktablarda xam, urta maktablarda xam davom etadi. Bu guruxlar urtacha xar 5 oyda shakllanib turadi. YApon bolalariga sinfni boshkarish juda yokadi . SHuning tuchun xar kuni

bolalarning uzlari (toban) boshkaruvchi tanlaydilar. Xar bir bola bu vazifani bajarib kuradi.

Boshlangich maktabda ukituvchilar bolalarni tankidga, ya'ni uz xulklarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchiliklarni tankid kilishni urgatadilar. Bundan kurinib turibdiki, ukituvchi fakat ta'lim berish bilan cheklanib kolmay, bolaning xar tamonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. SHuning uchun xam YAponiyada ukituvchi kasbiga kata e'tibor beriladi. YAponiya-rivojlangan davlatlar ichida ukituvchining maoshi davlat raxbarlari maoshidan xam yukori bulgan yagona davlatdir.<sup>4</sup>

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pogonasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bulgan bolalarni uz ichiga oladi. 6 yillik boshlangich ta'lim va 3 yillik urta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muxtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, ukuv kurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bulgan xollarda ularning oilalariga moddiy yordam kursatiladi. SHu bilan birga YAponiyada xususiy maktablar xam mavjud.

YUkori urta maktab 10,11,12-sinflarni uz ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtki, kechki bulimlari mavjud. Ukuvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ukiydi.

YAponiyada ukuv yili -240, AKSHda - 180 kun. YOzgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan utiladi.

Universitetlarga yukori va urta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan ukuvchilar kabul kilinadi. U erda 460 ta universitet bulib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipial, 31 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda xar bir ukituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba tugri keladi. Universitetlarga kabul kilish ikki boskichga bulinadi: 1-boskich turar joyda utkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kime, jamiyatshunoslik, tarix buyicha test sinovlaridan utiladi.

YAponiyada oliy ta'lim majburiy xisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy boglikdir. Oliy ta'lim tizimi kuyidagiturlarni uz ichiga olodi.

Tulik sikldagi universitetlar ( 4 yil).

Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).

Kasb ta'lim kollejlari .

Texnika institutlari.

### **1.3. Fransiyada ta'lim tizimining uziga xos xususiyatlari**

Fransiya jaxondagi iktisodiy rivojlangan mamlaktlar ichida etakchi urinni egallaydi. Uning ta'lim tizimlari xam kadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim xakidagi» Konun dastlab 1955 yilda kabul kilinib, 1975 yilda unga bir kator uzgarishlar kiritilgan. Fransiyada davlatining xozirgi davrida amal kilayotgan «Ta'lim



xakidagi» Konuni 1989 yil 10 iyulda kabul kilingan bulib, uning uzgartirishlariga ta'lim strategiyasida ruy bergan uzgarishlar, mamlakatning ichki , tashki siyosatidagi islohatlar, yuzaga kelgan iktisodiy sharoitlar, chet El pedagogikasidagi ilgor tajribalarning mamlakat ta'lim tizimiga kirib kelishi, ukuv fanlarining uygunlashuvi va boshkalar sabab buldi

Fransiyada ta'limning asosiy maksadi shaxsni xar tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaxkam faoliyatga tayyorlsh, bozor munosabatlari sharoitida ukuvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, omilkorlikka urgatish.shunga yarasha kasb- korga ega kilishdan iborat.Bu erda :davlat maktablari,xususiy maktablar, oralik maktablar mavjud.Ukitiladigan fanlar ichida fransuz tili va adabiyoti, ukish va yozuv aloxida axamiyatga molik. Ular uchun dars vaktining 30 foizi ajratiladi. Urtacha xaftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 dakika. Ukuv yili 5 chorakka bulinadi. Fransiyada maktablarida boshlangich sinflarda ukish ertalabki va tushdan keyingi kislarga bulinadi.Ertalab ukuvchilar ona tilidan,tushdan keyin esa matematika va boshka fanlardan sabok oladilar.

Fransiya ta'limida bolalarning gudaklik chogidanok maktabda ukitish uchun tayyor xolda olib kelish goyat muxim masaladir. Bu boskichda tarbiyalanuvchilar kuyidagicha tabakalashtirilgan:

- kichik gurux 2-4 yosh,
- urta gurux 4-5 yosh,
- katta gurux 5-6 yosh.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruxi bulib, ularga Fransiyada shu yoshdagi bolalarning 100 foizini kamrab olingan . Bolalarni maktabga tayyorlash uchun aloxida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada boshlangich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bulgan bolalar jalb kilinadi . Boshlangich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi ukish, yozish, xisoblash malakasini berishdir. Ukuv mashgulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha xamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovkatlanish pullik, lekin arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlangich sinflarda ukish uch boskichda amalga oshiriladi: Tayyorlov boskichi.

Elementar kurs (bu boskich ikki yil davom etadi).

CHukurlashtirilgan boskich.

Dasturlarda ukuv fanlarining barchasiga uch boskich buyicha anik, aloxida – aloxida talablar kuyilgan.

1990 yildagi xukumat karoriga muvofik bolalar bilimi va kobiliyatiga karab ,dars jadvalini tabakalashtirilgan xolda tuzish xukuki berildi. Ukuvchilar 11 yoshda boshlangich maktabni tugallab, urta maktabga utadi. Urta ta'lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. Urta ta'lim ikki boskichda amalga oshiriladi . Urta ta'lim ikki boskichda beriladi. Birinchi boskich (11 yoshdan15 yoshgacha) 4 yil bulib,eng kichik sinf 6-sinf, 5,4-urta sinf xisoblanadi.

Oliy ta'lim universitetlarda uch davrda amalga oshiriladi. Birinchi davr umumiy bulib, ukish muddati ikki yil. Ikkinchi davrda ukish bir yil davom etadi. Talablar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi. Uchinchi davrda ukish bir- ikki yil bulib, bunda:

- biron bir fanni chukurlashtrib urganligi xakida diplom (bir yil);
- davlat doktorlik dissertatsiyasi-biron bir soxani mukamal urganib, dissertatsiya yozish kabi xujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortik. Uchinchi davrda doktorlik dissertatsiyasi (ikki yil) tayyorlanadi. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat kursatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. Ukish muddati ikki yil bulib, sakkiz xaftalik ishlab chikarish amaliyotini xam kuzda tutadi.

Sirtki ta'lim shaxobchalari juda keng bulib, u 500 turdagi urta , oliy, professional ma'lumot berishni tavsiya etadi. Fransiyada maktab raxbarligi lavozimiga erishmok uchun ta'limga raxbarlik kilishdan sabok beruvchi maxsus markazlarda ukiydilar. Bunday markazlar ular raxbarlik kilish, maktab iktisodiyotini boshkarish, ta'limdagi yuridik masalalar, konunchilik, ota onalar bilan ishlash, madaniy-okrtuv ishlarin tashkil etish, jamoada yaxshi ruxiy muxitni barpo etish kabi jixatlarni urganadilar. Ukishni yakunlagach suxbatdan, test imtixonlaridan utadilar. Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyati ikki yil davomida dikkat bilan kuzatib boriladi. SHu ikki yil davomida maktab direktori iste'dodli tashkilotchi, etuk raxbar sifatida faoliyat kursata olmasa, u bu lavozimdan olib tashlanadi. Maktab ukituvchilariga kuyilgan talab Fransiyada uta yukori. Ayniksa , boshlangich maktablarda ukituvchi uz kasbini ustasi, ajoyib notik, san'atkor, musikachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulk atfor egasi bulmogi lozim.<sup>5</sup>

Ukituvchilar uz nazariy-uslubiy malakalarini oshirishga katta axmayyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan utish uchun anik muddat belgilab kuyilmagan. Ukituvchilar uz ixtiyori bilan test markazlarida imtixon topshiradi. SHu imtixonlar davrida ukituvchi faoliyatida ayrim nuksonlar sezilib, malaka oshirishga extiyoj aniklansa, uz vakti va mablaglari xisobiga malaka oshiradilar.

2000 yilda Fransiya maktablaridagi axvol sinchiklab urganilib, ukuvchilarning kupchligi darslarga kirmay, boshka ishlar bilan mashgul ekanligi aniklanib, bu kamchlikni tuzatish uchun choralalar kurilmokda. CHunki aynan darsga kirmay yurgan bolalar urtasida giyoxvandlik va xukuklarni buzish kabi xolatlar kup uchraydi. Umuman, Fransiyada ta'lim tizimini rivojlantirish uchun katta mablaglar ajratiladi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Respublikamizda ta'lim tizimini xaqida ma'lumot bering.
2. Chet ellarda kasbga yo'naltirish ishlari haqida gapirib bering.
3. Isroil davlatida ta'lim tizimi xaqida ma'lumot bering.



4. AQSH da kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni.
5. Kredit yig‘ish tartibini gapirib bering.
6. Frinsiya ta‘lim tizimini izoxlab bering.
7. Germaniyada ta‘lim tizimi
8. O‘zbekiston ta‘lim tizimi va Germaniya ta‘lim tizimini taqqoslang.
9. Germaniyada maktab ta‘limi xaqida ma‘lumot bering.
10. Yaponiyada ta‘lim tizimi va uning xususiyatlari xaqida gapirib bering.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdullaeva SH. va boshq. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2004.
2. Abdullaeva SH., Xolmamatova L.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T.: TAQI, 2005.
3. Xashimov K., Nishanova S. Pedagogika tarixi (darslik).
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi (darslik).
5. Djurinskiy A. Pedagogika: istoriya pedagogicheskix idey: Uchebnoe posobie. – M., 2000. – 352 s.

## **II-BOB. “PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING AMALIY ASOSLARI**

### **2.1. Didaktik o‘yinli texnologiyalarning ta‘lim jarayondagi tadbirg‘i**

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

“Ba‘zi talabalar ma‘ruzalarda foydalaniladigan an‘anaviy ta‘lim usullaridan qoniqib o‘qiydi, ba‘zilar amaliyotni ma‘qul ko‘radi, ba‘zilar esa ilmiy-tadqiqot ishlarni, muammoli vaziyatlarni, katta chaqiriqli ta‘lim usullarni xush ko‘radi va o‘shanga javob beradi. Talabalar turli xil usullar orqali ta‘lim olishi o‘ta muxim. Xisoblash fanida faollik tan olingan va motivatsiya katta kuch deb xisoblanadi, shu tufayli rag‘barlantirish muamollarni ta‘minlanadi. O‘zida ishonch xosil qilishda ta‘limni kuchaytirish uchun vaqtida konstruktiv bog‘lanish bo‘lishi, baxolash mezonli, tizimli bo‘lishi shart. fani xisobot, dasturiy ta‘minot ishlanmalar, analitik fikrlash, rejalashtirish va taqdim etish kabi ko‘p ko‘nikmalarda yuqori standartlarga amal qilishni talab etadi. Axoli talabalarning dasturlariga ixtiyoy sezayotganini, talabalar induksiyasi muhim ahamiyatga ega. Talabalar indeksi oliy ta‘lim muassasaga qabul qilinishidan oldin mavjud bo‘lishi lozim. Foydalanuvchining muassasa xaqida tassavurga ega bo‘lishi shart, barcha e‘lonlar, o‘quv hisoblash fan kuchli motivatsiya e‘tirof va ta‘lim muammolarni rag‘batlantirish taqdim etiladi. Masalan, rivojlanish davrida ular o‘z ta‘lim uchun katta mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish kerak. Yana, tayyor ish ustida konstruktiv qayta bog‘liklik muntazam ravishda mukammallikga erishish yo‘llari xaqida ma‘lumot etkazib beradi.

Tan olish kerak talabalar orasidagi texnologiyalar ular ta‘lim olishini ta‘minlaydi, kupchiligini qo‘lida mobil telefonlar mavjud bo‘lib tarmoqlarda ishtirok etishadi. Axborotlardan foydalanish manbayilar, zamonaviy texnologiyalarning talabalarning fe‘l atvoriga, o‘qishga bo‘lgan yondoshuviga ta‘siri bor. Talabalar kutish vaqti shundan iboratki ular bor uyali telefon, noutbuk yoki iPodlarga biror bir kishi ma‘lumotni joylashtirishi. Bu “mobilta‘lim”

yoki m- ta'lim deb atalmish talabalar o'rganishiga olib keldi (Vassell va boshq., 2006). Masalan, audiotanishish va SMSlar darslarga qisman yoki sabablarga ko'ra kela olmagan talabalar uchun ma'lumotlarni olishda alternativ vosita xisoblanadi. Ta'limda ushbu mexanizmlar va o'quv vositalaridan foydalanish asta-sekin birinchi bosqichda qo'llab-quvvatlanib kelmoqda va talabalar bilim olishida keng imkoniyatlar yaratadi"14.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchi-talabalarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklariniko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar o'quvchi-talabalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgvtish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivoj-lantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan alohida foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funkfional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. O'yinlar maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ladi.

Natijada, oldingi asrning 60 –yillari boshidan AQSHda, so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshladi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi – aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb nomlagan. U muammolarni quyidagicha echishga asoslanadi:

- muammoli vaziyat yaratish:
- g'oyalarni shakllantirish:
- eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va uni echish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi.

### **2.1.1. O‘yin tarzida modellashtirish texnologiyasi.**

**Ishchanlik o‘yini darsi** - dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchi-talabalarning faol ishtirok etishini ta‘minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mumkin.

**Roli o‘yin darsi** - dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchi-talabalarga oldindan ma‘lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

**Teatrlashtirilgan dars** - dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma‘lumotlar berish darsi.

**Kompyuter darsi** - tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quvkursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

**Kim oshdi savdosi darsi** - o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi-talaba qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

**Yarmarka darsi**-dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirishgan o‘quvchi-talabalarning o‘zaro muloqot asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

**Formulalar darsi**-o‘quvchi-talabalarning formulalarni puxta o‘zlashtirishlari bo‘yicha turli o‘yinlar shaklidagi manlar o‘tkazish darsi.

**O‘yin darsi**-dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchi-talabalarning o‘zlashtirishlarini tashkil qilish darsi.

**«Sud» darsi** - o‘quvchi-talabalar bilan dars mavzusiga mos «sud» jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

**Konsert darsi** - dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchi-talabalarni faollashtirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

**«Tergovni bilimdonlar olib boradi» darsi** - dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchi-talabalar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish matnlari bo‘lib, bunda o‘quvchi-talabalar dars mavzusini o‘zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

**Integral (integratsiyalashgan) dars** - bir nechta fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta‘lim jarayonidagi faolliklarini ta‘minlaydi.

Bunday darslar o‘quvchi-talabalarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**“Baliq ovi” o‘yini**- O‘quvchilarning har biri kichik varaqchalarga o‘zlariga qiziqarli bo‘lgan bittadan savol e‘zadilar. Uni buklab skrepka bilan

mahkamlaydilar, o'qituvchi uni maxsus qutiga yig'ib oladi hamda savollarni aralashtirib yuboradi. O'quvchilar magnit-qarmoq bilan bittadan savolni tortib, unga javob beradilar. Qarmoq -ipga bog'langan magnit bo'lib, qog'ozga qistirilgan skrepka magnitga epishib chiqadi. SHu tariqa guruhning barcha a'zolaridan galma-gal o'zlari-ovlagan baliq-savollariga javob berish talab etiladi. Savol-javobning bu usuli o'quvchilardagi qiziqishni oshiradi, tezkorlikga o'rgatadi. Didaktik uyinlarni tashkil etish prinsiplari Ishlab chiqarishdagi real vaziyatni modelini ko'chirish va ishlab chiqarish dinamikasini xisobga olish. Ishlab chikarish jaraeni rivojlanish , doimiy o'zgarish xarakteriga ega ekanligini yaxshi bilamiz. Ana shu o'zgaruvchanlik va dinamik rivojlanish ishbilarmon o'yinlarni tashkil etish jaraenida albatta xisobga olinishi talab etiladi. Kasbiy faoliyatni mazmunini va shaklini hisobga olish. Oliy ta'limning eng asosiy vazifalaridan biri yukori malakali kadrlarni etkazishdir. Biz ana shu vazifani bajarish uchun xar bir ixtisoslik buyicha uziga xos bulgan ishbilarmon uyinlarni ishlab chikishimiz zarur

«**Mu'jizalar maydoni**» darsi - o'quvchi-talabalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida turli javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchi-talabalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

**1. “Kosmik tezlik” o'yini.** Mazkur o'yinning asosiy quroli – to'pcha (koptok)ga guruh a'zolari doira shaklida turib, tez-tez bir-birlariga uzatishlari hisoblanadi. Uzatishda bir mavzu yo'nalishi tanlanadi (masalan, ekspertiza, surishtiruv va h.k.). oxirgi tugagan harf asosida to'pchani uzatgan holda nomlar davom ettirilishi kerak. SHartni to'liq bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

O'yinning maqsadi – guruh talabalari orasidagi harakatlarning muvofiqligi, psixologik moslik, harakatlarning birligi, tezkor fikr va topqirlik kabilarni shakllantirishga qaratilgan. Masalan, I kurs talabalari o'rtasida tashkil etiladigan bu o'yinda mavzu «YOng'in bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va oxirgi harfidan davom ettirish» tanlangan.

Sinf jamoasi ikkiga bo'linib, o'ynashadi va o'yin nihoyasida g'olib guruh aniqlanadi.

*Birinchi guruh aytgan nomlar qiya va tagiga chizilgan harflarda yozilgan.*

*Dinamik* → Kriminalist → *Tergovchi* → Ilmiy-tadqiqot → *Tevarak atrof* → Fotoplyonka → *Ashyoviy dalil* → Laboratoriya.

O'rtoq talabalar! Bu o'yinda ikkinchi guruh g'olib bo'ldi.

Endi «Kosmik tezlik» ekspert chamadoni misolida tashkil etamiz.

*Lupa* → Arqon → *Nomerlar* → Ruletka → *Arra* → Aptechka → *A 4 listlar*.

O'rtoq talabalar! Bu o'yinda birinchi guruh g'olib bo'ldi.

**2. “Uchta gap” o'yini.** O'qituvchi qisqa matnni yoki hikoyani o'qib beradi (quyida berilgan). Talabalar tomonidan ushbu matn yo hikoyani diqqat bilan

eshtib, uning mazmunini uchta oddiy gap bilan bayon qilishlari kerak. Matn yo hikoyaning mazmunini aniq hamda qisqa bayon qilgan talaba g'olib bo'ladi.

**3. «Curishtiruv organi boshlig'i» texnologiyasi.** Bu usul talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, «O'zini-o'zi boshqarish», «Rahbarning tashkiliy qobiliyatlari», deb nomlanuvchi mavzularning yakunida «Curishtiruv organi boshlig'i» degan yangi usuldan foydalaniladi. Har bir talabaga varaqlar tarqatiladi, ularda «Men YOXB boshlig'i», «Men-tergovchi», «Men-surishtiruvchi», «Men-ekspert», «Men-mutahassis», «Men-guvoh», «Men-xolis» kabi savollar yozilgan bo'ladi. Har bir guruh talabasi o'ziga tushgan faoliyatni ta'riflab, mazmunini ochib beradi, uning ish yuritishi va hatto, kiyinishigacha gapirib beradi. Javob beruvchi talabaga beriladigan savollarning 5-7 tadan oshmasligi shart. Oxirida tahlil qilingan obrazning ishi va uning kasbiy sifatleri, mehnat faoliyatining mazmuni, ish sharoitlari, o'ziga xos harakatlarining manzarasi ifodalanadi. Bu o'yin-usuli talabalarni ijodiy, mustaqil, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ish rejasini tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Psixotexnik o'yinlar didaktik o'yinlarning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan turi hisoblanadi. Bu o'yinlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi o'qitish usuli hisoblanadi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar


Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. SHu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- ✚ o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- ✚ o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- ✚ shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- ✚ hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- ✚ o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- ✚ shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

- ✚ insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- ✚ o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh-jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.



O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
4. O‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;
5. Mashg‘ulotlar davomida didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak

### **2.2.2. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik vaziyatlarni modellashtirishdan foydalanish.**

Ma’lumki, o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deyiladi.

Didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchi-talabalarning bilim olish faoliyatini o‘yin faoliyati bilan qo‘shib olish borishdan iborat. Didaktik o‘yinlar musoba.a, ra.obat, o‘zaro yordam, .amkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o‘.ituvchi didaktik o‘yindan ko‘zda tutilgan ma.sad, uni amalga oshirish yo‘llari, o‘yin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini ani.lab oladi. Didaktik o‘yin darslari ta’lim va tarbiya berish, o‘.uvchilar faoliyatini yo‘naltirish, kasbga yo‘naltirish, o‘.uvchilarning mulo.at va nut. madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chu.urlashtirish va shaxsni rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Didaktik o‘yinli darslarni mazmuniga ko‘ra sa.nalashtirilgan rolli o‘yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o‘yinlari, konferensiya va o‘yin mash.li darslarga ajratish mumkin.

Didaktik o‘yinli darslarning syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar va o‘yin mashklar kabi turlari bor.

Mazkur darsga hamma o‘quvchi-talabalar ular qaysi rolni bajarishidan qat’iy nazar qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

#### **Didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart- sharoitlari**

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi xisobga olinadi. Xar bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi xar bir tashkilotchining doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari xar bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini turli belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi.

#### **Didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlari:**

- ✚ ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha-o‘g‘il bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar, katta yoshdagilar uchun o‘yinlar;
- ✚ ishtirokchilar soni bo‘yicha-yakka, juftlikda, kichik gurux, katta gurux sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o‘yinlar;
- ✚ o‘yin jarayoni bo‘yicha-fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, xarakatlar, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar;



✚ vaqt me'yori bo'yicha-dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, qolib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Didaktik o'yinlar vositalari, ularni tayyorlash va mash. ulotlar samaradorligini oshirish omillari xar bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan turli, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

✚ kanselyariya tovarlari-turli o'lchamlardagi o. va rangli .o.ozlar, skotch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg'ichlar, qaychi, elim va boshqalar;

✚ texnika vositalari-proektor, mikrofon, kompyuter; videokamera, videomagnitofon, televizor va bosh.alar;

✚ o'quv asbob-uskunalari- o'quv laboratoriya va ustaxona jixozlari, o'lchov asboblari, o'quv priborlari, moslama, mexanizm, model va boshqalar;

✚ maxalliy va tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan .ar bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash .amda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya .ilishlari lozim. CHunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan ma.sadlarga mosligi, .ulayligi va ulardan turli foydalanish mash. ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Didaktik o'yin turlarini tayyorlash va amalda mashqlar bajarish**

Maktabda xar bir o'qituvchi ayrim turdagi didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatning ajralmas qismi xisoblanadi. Bunda o'qituvchilar o'zmutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq didaktik o'yin turlaridan musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi.

Rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

✚ Jamoa a'zolari o'rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;

✚ o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yilishini inkor etish;

✚ o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning erkin, bermalol, o'ziga ishongan holda, xotirjam harakat qilishlariga erishish;

✚ sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi (shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchi-talabalarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);

✚ sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchi-talabalarning o'yin faolligiga ta'sir qilmaslik

## **2.2. “PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA” FANIDAN TANLANGAN MAVZULARI BO‘YICHA O‘QUV MAQSADLARINI ISHLAB CHIQISH**

Pedagogik texnologiyadagi loyihalash jarayonida ham o'quv va tarbiya maqsadlari ishlab chiqishda tavsiflar va har bir didaktik bo'linmadan kutilajak natijalar ta'riflariga maxsus talablar qo'yiladi. Dastlab o'quv va tarbiya maqsadlari ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan o'quv maqsadlari asosida video ma'ruza ssenariysi yaratiladi.

Quyida ta'lim natijalarini kafolatlashga imkon beruvchi Benjamin Blum tomonidan tavsiya etilgan o'quv maqsadlarining kategoriyalari bo'yicha maqsadlar (erishilishi kutilayotgan ta'lim natijalari) bayon etilgan.

Ma'lumki, respublikamiz ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan 1 ta dars mashg'uloti uchun,  $7 \pm 2$  dona o'quv maqsadi qo'yish tavsiya etiladi. Buning asosida bir qancha sabablar yotadi. O'shalardan biri – yangi axborot qabul qilayotgan kishi diqqatining uzog'i bilan 15 daqiqagina faol turib bera olish-ligi bilan bog'liq. Demak, har 10 – 15 daqiqada axborot qabul qilayotgan kishi diqqatini keskin chalg'itib turish kerak va shundan so'nggina axborot uzatishning keyingi bosqichiga o'tish kerak

B. Blum bo'yicha o'quv maqsadlari 6 toifaga bo'linadi: 1 – bilish, 2 – tushunish, 3 – qo'llash, 4 – tahlil qilish, 5 – sintezlash, 6 – baholash. Blum bo'-yicha “Bilish” maqsadiga erishilishi o'quv materialining 55 – 62% , “tushunish” 63 – 70%, “qo'llash” 71 – 77%, “tahlil qilish” 78 – 85%, “sin-tezlash” 86 – 92%, “baholash” 93 – 100% o'zlashtiriganligini bildiradi. Sal kam yarim asr vaqt mobaynida o'quv maqsadlarining B. Blum bo'yicha takso-nomiyasidan butun dunyo miqyosida juda unumli foydalanildi. O'zlashtirish sifati o'qitishni Blum taksonomiyasidan foydalanib olib borilgan o'quv muassasalarida undan foydalanmagan o'quv muassasalaridagidan ko'ra ancha yuqori bo'ldi. Quyida biz tanlab olingan mavzular bo'yicha aniqlangan o'quv maqsadlarini keltirib o'tamiz.

**2.2.1. “MULOQOT PSIXOLOGIIYASI” MAVZUSI BO‘YICHA  
ANIQLANGAN O‘QUV MAQSADLARI**

O‘quv maqsadKategoriya	Talaba faoliyati	O‘quv maqsadKategoriya	Talaba faoliyati
<b>Bilish</b>	<p>1. Muloqot xaqida ma’lumotga <b>ega bo‘ladi:</b></p> <p>2. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o‘rinni egallashini <b>biladi:</b></p> <p>3. Muloqotning insonlarga ta’sir ko‘rsatish usulini ekanligini <b>biladi.</b></p>	<b>Analiz</b>	<p>1. Muloqotda ijobiy xisssiyotlar va salbiy xisssiyotlarni <b>ajrata oladi;</b></p> <p>2. Muloqotni tashkil <b>qiluvchilarini ko‘rsatib bera oladi;</b> (nutq, so‘zlar. )</p> <p>3. Muloqotni <b>tarkibiy qismlarini bilib oladi.:</b></p>
<b>Tushunish</b>	<p>1. Jamoada va guruxda qanday muomala qilishni <b>anglab yetadi:</b></p> <p>2. Muloqot haqidagi katta xajmdagi ma’lumotlarni <b>ixcham shaklda bayon qila oladi:</b></p> <p>3. Guruxdoshlariga muloqot tushunchasi xaqida taklif bera oladi.</p>	<b>Sintez</b>	<p>1. Muloqot xaqida fikrlarni <b>umumlashtira oladi:</b></p> <p>2. Rasmiy muloqotning rejasini <b>tuza oladi:</b></p> <p>3. Muloqotning Paralingvistik ta’sir turini <b>loyixalay oladi.</b></p>
<b>Qo‘llash</b>	<p>1. Mavzuning asosiy tushunchalariga belgi <b>qo‘ya oladi:</b></p> <p>2. Pedagoglar oldida yuqori mumala madaniyatini namoyon <b>qila oladi</b></p> <p>3. Olgan nazariy bilimlarini amaliyotda <b>qo‘llay oladi.</b></p>	<b>Baholash</b>	<p>1. O‘rtoqlarining muloqotidagi <b>kamchiliklarni ko‘rsata oladi;</b></p> <p>2. Muloqot insonlar xayotida kerakli ekanligini <b>baholay oladi;</b></p> <p>3. Rasmiy va norasmiy muloqot turlarini <b>baholay oladi;</b></p>

**2.2.2. “SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”  
MAVZUSI BO‘YICHA ANIQLANGAN O‘QUV MAQSADLARI**

O‘quv maqsad. Kategoriyasi	Talaba faoliyati	O‘quv maqsad. Kategoriyasi	Talaba faoliyati
<b>Bilish</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqat nerv tizimining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibidan iborat ekanligini <i>biladi</i>;</li> <li>2. Qobiliyatlarning tug‘ma yoki orttirilgan ekanligi haqida <i>aytib beradi</i>;</li> <li>3. Psixologiyada tug‘malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deyilishini <i>eslab qoladi</i>;</li> </ol>	<b>Analiz</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Temperamentning turlarini bir-biridan <i>farqlay oladi</i>;</li> <li>2. Shaxsning individual xususiyatlari temperament, xarakter, kobiliyatlarni <i>guruxlay oladi</i>;</li> <li>3. Tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqatni bir biridan <i>farqlay oladi</i></li> </ol>
<b>Tushunish</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat turlarini <i>izoxlaydi</i>;</li> <li>2. Bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug‘ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmay qolishini <i>izoxlaydi</i>;</li> </ol>	<b>Sintez</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Inson vaziyatga qarab temperamentini o‘zgartirishini haqida <i>reja tuzadi</i>;</li> <li>2. Temperament turlariga <i>insho yoza oladi</i>;</li> </ol>
<b>Qo‘llash</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar o‘z iqtidorlarini <i>namoyish qila oladi</i>;</li> <li>2. Inson xarakterini <i>tarkibiy qismlarini ajrata oladi</i>;</li> </ol>	<b>Baholash</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Odamlarning temperamentiga <i>baho bera oladi</i>;</li> <li>2. Xarakter inson temperamentiga bog‘liqligini <i>isbotlaydi</i>;</li> <li>3. Insonda xar 4 temperament mavjudligini <i>isbaotlay oladi</i>.</li> </ol>

**2.2.3. “RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA TA’LIM-TARBIYA” MAVZUSI BO‘YICHA ANIQLANGAN O‘QUV MAQSADLARI**

O‘quv maq. Katego.	Talaba faoliyati	O‘quv maqsad	Talaba faoliyati
<b>Bilish</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Isroil davlatida ta’lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iboratligini biladi.</li> <li>2. Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta’lim texnologiyasi ko‘ra sinflarda o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasiga qarab tabahalarga ajratib o‘qitilishini biladi.</li> <li>3. Oliy ta’lim tizimi uch bosqichda ekanligini biladi.</li> </ol>	<b>Analiz</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Germaniya va Fransiya ta’lim tizimini farqlay oladi.</li> <li>2. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimini o‘xshash jixatlari bo‘yicha guruxlaydi.</li> <li>3. Germaniyada o‘qituvchilar malaka oshirish tizimini bilimlariga tayanib 3 turga bo‘ladi.</li> </ol>
<b>Tushunish</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. AQSHda Pedagoglarning malaka oshirishi ikki toifaga bo‘linishini tavsiflaydi.</li> <li>2. Germaniya – ta’lim va kasbga yo‘naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlar davlati ekanligini izoxlaydi.</li> <li>3. Mamlakatda o‘n oltita federal er mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta’lim to‘g‘risidagi qonuniga ega ekanligini tushuntiradi.</li> </ol>	<b>Sintez</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tizimini xaqidagi fikrlarini umumlashtira oladi:</li> <li>2. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tizimini taqqoslaydi:</li> <li>3. Ta’lim tizimlarini o‘zaro ketma-ketlikda loyihalay oladi.</li> </ol>
<b>Qo‘llash</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Maktab ta’lim tizimi boshlang‘ich (primarstufe), o‘rta (sekundarstufe I), yuqori (sekundarstufeII) bosqichlardan iboratligini namoyish etadi.</li> <li>2. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. O‘quvchilar fanlarni eng kamida «4»ga o‘zlashtirishi kerakligini tushuntirib beradi.</li> <li>3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya xaqidagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladi.</li> </ol>	<b>Baholash</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tizimiga munosabat bildiradi:</li> <li>2. O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi ta’lim tizimini tashxislaydi:</li> <li>3. YAponiya ta’lim tizimi bizning mentaletimizga yaqin ekanligini isbotlaydi.</li> </ol>

### 2.3.“MULOQOT PSIXOLOGIYASI” MAVZUNING TEXNOLOGIK MODELI VA XARITASI

Talabalar soni:	Vaqt 2 soat
<b>Dars shakli</b>	<b>Ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza rejasi</b>	<p>1. Muloqot –psixologik faoliyat sifatida.</p> <p>2.Muloqotning turi va insoniy munosabatlar psixologiyasi.</p> <p>3.Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni.</p> <p>4.Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari.</p> <p>5. Muloqot va uni o‘rganish muammolari.</p>
<p>Dars maqsadi: Muloqot xaqida yangi bilimlar berish. Muloqotga ta’rif berish. Muloqot turlari haqida tushuncha berish. Muloqot shaxslarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi sifatida. Muloqot odamlarning bir- birini idrok qilish vositasi sifatida sharxlanadi.</p>	
<p><b>Pedagog vazifalari:</b></p> <p>O‘quv tarbiya jarayonini boshqargan xolda muloqotga umumiy tushuncha ta’rif berish xususida fikrlar bildirish. Muloqotning turlari, muloqot kishilarning bir- birlarini tushunib borishini ochib berish</p> <p>Muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o‘rgatish uning jamiyatdagi o‘rni.</p>	<p><b>O‘quv natijalari:</b></p> <p>Shaxs muloqot psixologiyasi haqida biladi.</p> <p>Muloqotning turlarini tahlil qiladi.</p> <p>Muloqotning psixologik vositalarini izohlab bera oladi.</p> <p>Muloqotni o‘rganish muammolarini tushuntirib bera oladi.</p>
O‘qitish uslubi va texnikasi:	Ma’ruza suhbat, bahs-munozara, fikr qilish, almashish, muhokama qilish.
O‘qitish vositalari:	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar.
O‘qitish shakli:	Frontal
O‘qitish shart sharoiti:	Texnik vositalarni qo‘llashga mo‘ljallangan auditoriya. Proektor.
Monitoring va baholash:	Og‘zaki so‘roq, savol-javob, tahlil natijalari.

## Ma'ruza darsiga texnologik xarita

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1 - bosqich Kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Talabalarga yangi mavzu haqida ma'lumot beradi. Dars davomida bajariladigan vazifalar bilan tanishtiriladi.</p> <p>1.2. Dars davomida qanday mavzular izchillik bilan o'rganilishi bilan talabalarni tanishtiradi.</p> <p>1.3. Mavzuni e'lon qiladi va tegishli adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.4. Faollashtiruvchi savollar bilan talabalarga murojaat etadi va talabalarning bilim darajasini diagnostikasini amalga oshiradi va tayanch suzlarni yozdiradi.</p>	<p>Tinglaydilar, kerakli deb lozim topgan ma'lumotlarni yozib oladilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
2 - bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>Mavzu bo'yicha o'quv materialini reja asosida talabalarga og'zaki bayon etish yo'li bilan etkaziladi.</p> <p>2.1. Muloqotga umumiy tushuncha ta'rif berish xususida fikrlarini ochib beradi. Muloqot turlariga oid rasmlarni izoxlaydilar va "Jumboq ko'chasi" didaktik o'yinli texnologiyasi bo'yicha</p> <p>2.2. Talabalarga savol javob bilan murojaat etadi. Javoblarni umumlashtiradi va guruxlarga va rollarga bo'lib vazifalar topshiradi "Tasavvur qiling" didaktik o'yinli texnologiya bo'yicha vazifa beradi.</p> <p>2.3. Dars jarayoni baxs munozarali bo'lish uchun didaktik o'yinli texnologiyalardan "Sud darsi" qo'llaniladi.</p>	<p>2.1. Tinglaydilar slayddan ma'lumot yozib, chizib takomillashtirib boyitadilar va vazifani bajaradilar</p> <p>2.2. "Tasavvur qiling" didaktik o'yinli texnologiya bo'yicha vazifalarni bajaradilar</p> <p>2.3. "Sud darsi" bo'yicha topshiriqni bajaradilar.</p>
3- bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani aytadi.</p> <p>3.2. Talabalarni dars davomidagi faoliyatini taxlil etadi va baxolaydi.</p>	<p>3.1. Savollar beradilar</p> <p>3.2. Yozadilar</p>

## **2.4. “PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA” FANINING O‘QITISH METODIKASI**

### **2.4.1. “MULOQOT PSIXOLOGIYASI” MAVZUSI BO‘YICHA DARS O‘TISH METODIKASI VA YARATILGAN ISHLANMANI BAYONI**

1. Salomlashish va davomaddan so‘ng. Mavzuning rejasi, maqsadi va ma‘ruzadan kutilayotgan natijalar izoxlanadi.
2. “Muloqot psixologiyasi” mavzusining mazmun va mohiyati, unga tuzilgan reja asosida innovatsion ta‘lim texnologiyalari va didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalangan holda tushuntiriladi.
3. Mashg‘ulotda talabalarning faolligini oshirish maqsadida faollashtiruvchi savollar berib boriladi.
4. “Muloqot psixologiyasi” mavzusining tushunchalariga “Jumboq ko‘chasi” didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.
5. O‘rganilayotgan materialni yaxshiroq anglash uchun qo‘llaniladigan “Tasavvur qiling” didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.
4. “Muloqot psixologiyasi” “Sud darsi” didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.



**1-NAMUNA: “Jumboq ko‘chasi” o‘yini.** Mu.....- odamlar amalga oshiradigan -faoliyatlar ichida etakchi o‘rinni egallaydigan vositadir (Muloqot – “loqot”). Muloqotning r..... va .....miy turlari mavjud (Rasmiy – “asmiy”)Norasmiy-“noras”). N.....l ta’sir-uning ma’nosi “nutqsiz”dir(Noverbal-“overba”).Muloqot, uning tabiati, texnikasi va s.....iyasi, muloqotga o‘rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug‘ullanuvchi fan(Strategiya-“trateg”). Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, .....iradi. (ruhlantiradi – “ruhlant”). Ve..... ta’sir - bu so‘z va nutqimiz orqali ko‘rsatadigan ta’sirimizdir. (Verbal– “rbal”). Pa.....tik ta’sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. (Paralingvistik– “ralingvis”)

**2-NAMUNA: Tasavvur qiling** - Siz maxalla qo‘mitasida o‘tkaziladigan majlisning qatnashchisisiz. Majlis kun tartibida – xar bir qatnashchi o‘z faoliyati jarayonida duch keladigan muammolar muxokamasi ya’ni odamlarning muloqot madaniyati. Faoliyat esa shaxsning (bolaning) xar tomonlama etuk rivojlanishida muloqotning o‘rni xar bir qatnashchi majlisda to‘rttadan kam bo‘lmagan muammoni ko‘taradi:



- Xar bir qatnashchi chiqishiga reglament belgilanadi.
- Umumiy majlis majlis boshqaruvchisini tayinlaydi.
- Slaydda majlis qatnashchilarining ro‘yxati namoyish etiladi.
- Maxalla qo‘mitasidagi majlis:
- Majlis qatnashchilari:
- Maxalla qo‘mitasining raisi (1 o‘qituvchi-talaba)
- MTM mudirasi (1 o‘qituvchi-talaba)
- Maktab direktori (1 o‘qituvchi-talaba)
- Poliklinika bosh shifokori (1 o‘qituvchi-talaba)

“Oilaviy ta’lim”dasturi bo‘yicha mutaxassis (volontyor) (1 o‘qituvchi-talaba)

qo‘ni-qo‘shni (2 o‘qituvchi-talaba)

Ota-ona (1 o‘qituvchi-talaba)

Bola (6 yosh) (1 o‘qituvchi-talaba)

Rolli o‘yinlar o‘tkazishda uni o‘tkazish qoidalari plakatda osib qo‘yiladi.

Kerakli material:

- ekran
- multimedia proektor
- kompyuter
- Xrestomatiya
- Rolli o'yinni o'tkazigan trener sifatida o'ziga beriladigan maslahatlar

Rolli o'yinni o'tkazadigan trener sifatida o'ziga beriladigan maslahatlar:

- Vaziyatni to'g'ri aytib berish
- Vaziyatni o'zi tushunib yetishi

Rollarni aniq bo'lib berish

- Aniq instruktaj o'tkazish
- Lozim bo'lgan sharoitni yaratish
- Reglamentni aniqlab nazorat qilish
- Ta'lim maqsadlarini to'liq aniqlab olish
- Maqsadga erishishga harakat qilish
- Harakatlarni (o'yinning o'zini) nazorat ostida ushlash
- Trener bajaruvchidan masalani to'g'ri tushunganligini tasdiqlaganini

eshitish

- Maqsadli guruhning darajasini hisobga olish
- O'quv maqsadi bo'yicha rolli o'yin natijalarini to'liq tahlil qil
- qo'mitasida majlis)

**Ta'lim maqsadi:** Qatnashchilar mahallalardagi aniq vaziyatni yaratadilar

2) Asosiy muammolar "to'plamini" aniqlash, kichik guruhlarda bu muammo bo'yicha ish olib borish, bor muammoni yuzaga chiqarish.

**Ta'lim maqsadi:** Qatnashchilar bor bo'lgan muammolarni yuzaga chiqarib yig'adilar.

3) Sabab – oqibat bog'liqligini tuzish

**Ta'lim maqsadi:** Qatnashchilar muammolar daraxti bilan tanishadilar, asosiy muammolar bo'yicha sabab va oqibat bog'liqligini to'zadilar.

4) Muammolarni hal qilish yo'llarini asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishlab

**3-NAMUNA: «Sud» darsi:** Faraz qiling odamlar gavjum joyda yoki jamoat joylarida misol uchun bozor, kinoteatr, OTM, konsert zallarida muloqot madaniyatiga, o'zini tutish qoidalariga va jamoat joylarida odamlarga qo'pol muommala qilgan insonga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llanib sud ishi ketmoqda.

Sud jarayoni:

Sudya: Talaba Ikromov A.N.

Prokuror: Talaba Azizov A.M.

Adokat: Talaba Agzamova F.YU.

Kotiba: Talaba YUldasheva N.G.

Jabrlanuvchi: Talaba Xakimova R.T.

Ayblanuvchi: Talaba Xodjaev SH.T.



Sud jarayonida tomonlarning fikrlari eshitilib qaror qabul qilindi.

Sudya. Talaba Ikromov A.N. so‘zga chiqib: Jabrlanuvchi: Talaba Xakimova R.T.ning arizasi qanoatlantirilishi va ayblanuvchi: Talaba Xodjaev SH.T.ga nisbatan jinoyat kodeksining ma’lum bir bob, bo‘lim va moddasi qo‘llanib unga eng kam ish xaqining 1000 barobari miqdorida jarima solish belgilansin va ijrosi taminlansin.

O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishni orttirish, didaktik-o‘yin, o‘quv munozaralari, o‘quvchilarning tahsil olishdagi burch va mas’uliyatini shakllantirish metodlariga mansub bo‘lib, ular quyidagicha:

a) o‘qishga bo‘lgan qiziqishni orttirish metodlari o‘quvchilarda ijobiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, taajublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va tanbeh berish uslubi.

b) didaktik o‘yin metodi, o‘yin syujetini tanlash, o‘yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o‘quv-bilishga oid o‘yinlarni tanlash, o‘quvchilarni rag‘batlantirish uslubi. v) o‘quv munozaralari metodi o‘quv bahslarini keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratish, ilmiy bahslarni vujudga keltirish. O‘quvchilarni muvaffaqiyatlarga yo‘llash, o‘quvchilar fikrini bayon qilishi, ular javobidagi xatolarni to‘g‘rilash, o‘quvchilarni rag‘batlantirish uslubi.

d) o‘quvchilarning tahsil olishdagi burch va mas’uliyatini shakllantirish metodi ta’lim-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o‘quv talablarini qo‘yish, o‘qitishda rag‘batlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi.

o‘quvchilarning mustaqil keng va puxta bilim olishlarida ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiya, o‘yin mashqlari kabi didaktik o‘yinlar o‘zining ta’lim- tarbiya beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, o‘quv materiallarini takrorlovchi, bilimlarni nazorat qiluvchi o‘yinlar sifatida ifoda etilishi bilan ahamiyatlidir. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning o‘zlarida bor bo‘lgan bilim, ko‘nikma,

malakalarini yangi vaziyatda qo'llash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishida didaktik o'yinlarning o'rni alohida ajralib turadi. Bunda ularning bir-biridan farqlanishi va o'ziga xos tavsifga ega ekanligiga e'tibor beriladi. Ijodiy o'yinlar – talabalarning ijodiy izlanish, mantiqiy fikr yuritishini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan o'yinlardir. Bu o'yinlar ta'sirida o'quvchi ijodiy izlanib, yangiliklarni kashf etadi va uni hayotida qo'llaydi. Dars jarayonini oshishiga o'quvchi-talabalarning darsga qiziqishiga olib keladi.

## **2.4.2. “SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI” MAVZUSINING O’QITISH METODIKASI**

1. Salomlashish va davomaddan so‘ng. Mavzuning rejasi, maqsadi va ma‘ruzadan kutilayotgan natijalar izoxlanadi.
2. “Shaxsning individual psixologik xususiyatlari” mavzusining mazmun va mohiyati, unga tuzilgan reja asosida innovatsion ta‘lim texnologiyalari va didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalangan holda tushuntiriladi.
3. Mashg‘ulotda talabalarning faolligini oshirish maqsadida faollashtiruvchi savollar berib boriladi.
4. “Shaxsning individual psixologik xususiyatlari” mavzusi bo‘yicha “Kosmik tezlik” didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.
5. O‘rganilayotgan materialni yaxshiroq anglash uchun Temperament turlariga “Rezyume” texnologiyasidan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.

.

**1. “Kosmik tezlik” o‘yini.** Mazkur o‘yinning asosiy quroli – to‘pcha (koptok)ga guruh a‘zolari doira shaklida turib, tez-tez bir-birlariga uzatishlari hisoblanadi. Uzatishda bir mavzu yo‘nalishi tanlanadi (masalan, temperament, xarakter va h.k.). oxirgi tugagan harf asosida to‘pchani uzatgan holda nomlar davom ettirilishi kerak. SHartni to‘liq bajargan guruh g‘olib hisoblanadi.

O‘yinning maqsadi – guruh talabalari orasidagi harakatlarning muvofiqligi, psixologik moslik, harakatlarning birligi, tezkor fikr va topqirlik kabilarni shakllantirishga qaratilgan. Masalan, 3-kurs talabalari o‘rtasida tashkil etiladigan bu o‘yinda mavzu «Shaxsning individual psixologik xususiyatlari» mavzusining mazmun va moxiyati» tanlangan.

Sinf jamoasi ikkiga bo‘linib, o‘ynashadi va o‘yin nihoyasida g‘olib guruh aniqlanadi.

*Birinchi guruh aytgan nomlar qiya va tagiga chizilgan harflarda yozilgan.*

*Temperament* → Tarixiy kategoriya → *YAlqovlik* → Kamtarlik → Ko‘ngilchan → *Nazokat* → .....

O‘rtoq talabalar! Bu o‘yinda birinchi guruh g‘olib bo‘ldi.

Endi «Kosmik tezlik» ekspert chamadoni misolida tashkil etamiz.

*Lupa* → Arqon → *Nomerlar* → Ruletka → *Arra* → Aptechka → A 4 listlar.

O‘rtoq talabalar! Bu o‘yinda birinchi guruh g‘olib bo‘ldi.

**2. “Uchta gap” o‘yini.** O‘qituvchi qisqa matnni yoki hikoyani o‘qib beradi (quyida berilgan). Talabalar tomonidan ushbu matn yo hikoyani diqqat bilan eshtib, uning mazmunini uchta oddiy gap bilan bayon qilishlari kerak. Matn yo hikoyaning mazmunini aniq hamda qisqa bayon qilgan talaba g‘olib bo‘ladi.

*Xikoya: Bir kuni otam menga bilaguzuk sotib olib berdi. O‘zimda yo‘q xursand bo‘lib, dugonalarimga ko‘rsatdim. O‘gay onam o‘ziga marjon, uzuk, bir qancha bilaguzuk sotib oldi... Menga nima?! Otamning boyib keganiga suyundim, xolos.*

*Marjonimda quyosh nurlari tovlanayotganiga mahliyo bo‘lib o‘tirgandim. Birdan vahimali gumbur-gumbur eshitildi: kattakon moshina bog‘imizni vayron qilayotgan ekan, palmalarimga asta-sekin yaqinlashyapti... CHinqirgancha, chopib borib, moshinaning oldiga o‘tirib oldim... O‘gay onam qo‘limdan sudrab:*

*– Bog‘ni sotdik. Bu erga ko‘cha tushadi... – dedi.*

*Men uning sochlarini yulib, yuziga chang soldim...*

*– Bu bilaguzuging qaysi pulga kelganini bilasanmi o‘zi?!*

*Bilaguzukni moshina tagiga tashladim... Keyin... meni shu yoqqa olib kelishdi.*

## “TEMPERAMENT” TURLARIGA “REZYUME” TEXNOLOGIYASI

Sangvinik		Flegmatik	
<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>
Xarakatchan, muvozanatli tip. Yangi shart sharoitga tez moslashadi, kek saklamaydigan tip. («Bir kop yongok»).	Tez ishga kirishib tez soviydi, uz urnini, rolini tez almashtiradi, begaraz,	Xissiyotlari sekin paydo buladi, ammo barkaror va davomli buladi. U vazmin va yuvosh, uning jaxlini chikarish kiyin, lekin	Jaxli chiksa tuxtatish xam kiyin, kasoskor, ginachi.
Xulosa: Xar bir insonda temperamentni bir turi xukmronlik qilishi mumkin, lekin temperamentning qolgan turlaridan ham mavjud bo‘ladi.			

### **2.4.3. “RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA TA’LIM-TARBIYA” MAVZUSINING O’QITISH METODIKASI**

1. Salomlashish va davomaddan so‘ng. Mavzuning rejasi, maqsadi va ma’ruzadan kutilayotgan natijalar izoxlanadi.
2. “Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya” mazmun va mohiyati mavzusining mazmun va mohiyati, unga tuzilgan reja asosida innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalangan holda tushuntiriladi.
3. Mashg‘ulotda talabalarning faolligini oshirish maqsadida faollashtiruvchi savollar berib boriladi.
4. “Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya” mavzusining tushunchalariga “Kichik guruxlar” shakllantiriladi va guruxlarga didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.
5. O‘rganilayotgan materialni yaxshiroq anglash uchun qo‘llaniladigan “Baliq ovi” didaktik o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish uchun topshiriqlar beriladi.
5. Talabalarni mavzu bo‘yicha bilimlarini nazorat qilish uchun “Assisment” texnologiyasidan foydalaniladi.



**“Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya” mavzusiga  
“Baliq ovi” metodining tatbig’i**



1. Chet ellarda kasbga yo‘naltirish ishlari xaqida ma’lumot bering

2. AQSH maktab tizimini izoxlab bering.


3. Germaniyada ta’lim tizimini rivojlanish bosqichlari.

6. O‘zbekiston va Germaniya ta’lim tizimining taqqoslab bering.

5. Isroilda MTM faoliyati xaqida aytib bering.

4. Yaponiya ta’lim tizimi rivojlanishiga nima sabab deb o‘ylaysiz?

## “Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya” mavzusiga “Kichik guruxlarda ishlash” metodi tatbig’i



## 2.5. “PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA” FANIDAN TALABALAR BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI BAXOLASH

### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarning ma’ruza, seminar mashg’ulotlariga tayyorlanib kelishi va o’tilgan materiallarni mustaqil o’zlashtirishlari uchun kafedra o’qituvchilari tomonidan ma’ruza matnlari ishlab chiqilgan, har bir talabaga ushbu materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o’zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o’z aksini topadi. Shu sababli reyting tizimida mustaqil ishlarga alohida ball ajratiladi, ular JB, OB tarkibiga kiritilgan.

Mustaqil ish uchun fan bo’yicha jami 48 soat ajratilgan. Mustaqil ish soatlari quyidagi tartibda taqsimlanadi:

1. Ma’ruza konspektini takrorlash – 20soat
2. Amaliy mashg’ulotlarga tayyorlanish – 16soat
3. Elektron variantda yozish – 12 soat.

### Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

Ishchi o’quv dasturining mustaqil ta’limga oid bo’lim va mavzulari.	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarilish muddatlari	Xajmi (soatda)
<p><b>Psixologiya–psixika haqidagi fan sifatida.</b> Psixologiya fani haqida umumiy tushuncha. Psixologiya fanining rivojlanish tarixi. Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishi.</p>	Darslik va o’quv qo’llanmalarning (ularning to’la ta’minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o’rganish.	1-3 hafta	6
<p><b>Shaxs psixologiyasi.</b></p>	Tarqatma materiallar bo’yicha ma’ruza qismlarini o’zlashtirish. Amaliy mashg’ulotga tayyorgarlik	4-5 hafta	4
<p><b>Muloqot, Boshqaruv psixologiyasi</b></p>	O’qitish va nazorat qilishning avtomatlash-tirilgan tizimlari bilan ishlash.Fanning boblari va mavzulari ustida	6-8 hafta	6

	ishlash.		
<b>Shaxsning hissiy–irodaviy xususiyatlari.</b> <b>Shaxsning individual–psixologik xususiyatlari.</b>	Psixologiyadan mashg’ulotlar o’tish davo-mida talabalarni ijodiy jarayonga yo’naltirish, ularni taxlil qilish, mustaqil ishlashga o’rga-tish, mashqlar bajarish	9-11xafta	6
<b>1-Oraliq baholash</b>	1-OB ga tayyor-garlik	12	2
<b>Zamonaviy ta’lim-tarbiya va uning mohiyati.</b>	Badiiy asarlarni estetik-g’oyaviy jixatdan taxlil qilish, Tarbiya usullari haqida referat yozish	13	4
<b>Pedagogik texnologiyalar</b> Pedagogik texnologiyalarning mezonlari. Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi. “Pedagogik texnologiya”ning mohiyati va unga qo’yilgan talablar.	“Pedagogik texnologiya”ning mohiyati va unga qo’yilgan talablar asosida mustaqil ish tayorlash	14	6
<b>O’quv –tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari. Tarbiyada shaxs rivojlanishi</b> Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo’nalishlari. O’quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi. Shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar.	Prezident I.Karimovning tarbiyaga oid asarlarini o’rganish.	15-16	6
<b>O’quv faoliyatini tashkil qilish shakllari va ta’lim sifatini baholash. Didaktika.</b> Ta’lim mazmuni. Ta’lim mazmunini aks ettiruvchi asosiy hujjatlar. Ta’lim usullari. Mustaqil ta’lim olishning didaktik vositalari	Ta’lim shakllari, usullari, didaktika to’g’risida referat tayyorlash.	17	4

haqida tushuncha berish.			
<b>2-Oraliq baholash</b>	2-OBga tayyorgarlik	18	2
<b>Yakuniy baxolash</b>		19	2
<b>Jami</b>			48

Fanni talaba o'zlashtirishi uchun ma'ruza, seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda ishlashi hamda referat yozishi ko'zda tutilgan.

Seminar mashg'ulotlarda talabalarni mustaqil fikrlashi orqali nazariy bilim mustahkamlanadi.

Qoldirilgan ma'ruza darslarini topshirish uchun talaba:

- mazkur dastur asosida mavzuga oid adabiyotlar orqali mavzuni tushunib olishi;
- konspekt tayyorlashi;
- belgilangan muddatda ma'ruzani qayta topshirishga kelishi;
- o'qituvchining savollariga javob berishi zarur.

Qoldirilgan seminar mashg'ulot darslarini topshirish uchun talaba:

- mazkur dastur asosida mavzuga oid adabiyotlar orqali mavzuni tushunib olishi;
- o'qituvchidan amaliy mashg'ulot bo'yicha individual topshiriqlarni olishi;
- topshiriqlarni tayyorlashi;
- belgilangan muddatda amaliy mashg'ulotni qayta topshirishga kelishi;
- o'qituvchining savollariga javob berib, tegishli reyting ballini olishi zarur.

Qoldirilgan OB ni qayta topshirish uchun talaba:

- ma'ruza konspekti va adabiyotlar bilan OB ga tayyorgarlik ko'rishi;
- belgilangan muddatda OB ni qayta topshirishga kelishi;
- berilgan variant bo'yicha OB savollariga javob berishi va reyting ballini olishi zarur.

№	JB 35 %	Amal.mash Mus.ta'l.	Sentyabr						Oktyabr			Noyabr				Dekabr				Yanvar				Utish ballari			
			02-03	05-10	12-17	19-24	26-01	03-08	10-15	17-22	24-29	31-05	07-12	14-19	21-26	28-03	05-10	12-17	19-24	26-31	02-07	09-14	16-21		Qonik arl i	Yaxshi	A'lo
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21				
1				2	2	3	2	3	2	2	2	2	3	2	2	2	2	2	2	T	T	2		35	19	25	30
2		Ma'ruza Mus. ta'l.									15									T	T	15		30	17	21	26
3																				T	T		30	30	17	21	26
4		Jami	12						33						55							100	55	71	86		
		Fanni o'zlashtirish ko'rsatkichi																				120	66	85	103		

Nazorat turi	Reyting baxolashlar			Ja'mi	Saralash bali
	1	2	3		
JB (seminar mashg'ulotlari , 35%)	11	12	12	35	19
OB (35%)		20	15	35	19
YaB (30%)			30	30	17
Ja'mi:	11	32	57	100	55

### JB ni baholash mezonlari

“Pedagogika.Psixologiya” fani bo'yicha joriy baholash talabning amaliy o'zlashtirishini aniqlash uchun qo'llaniladi va umumiy reyting balining 35% ni tashkil qiladi. Har bir amaliy mashg'ulotda JB so'rov o'tkazish, test savollarini yechish, savol va javob, masalalar yechish kabi shakllarda amalga oshiriladi. Talabaga JB da butun ballar qo'yiladi. 5 ball mustaqil ish uchun ajratiladi.

Talabning o'zlashtirish darajasi	Talabaga qo'yiladigan ball
Yetarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil yechgan. Berilgan savollarga to'liq javob beradi. Masalaning mohiyatiga to'liq tushunadi. Auditoriyada faol. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan.	3
Yetarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni yechgan. Berilgan savollarga yetarli javob beradi. Masalaning mohiyatini tushunadi. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi.	2
Topshiriqlarni yechishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalaning mohiyatiga chala tushungan. O'quv tartib intizomiga to'liq rioya qiladi.	2
Topshiriqlarni yechishga harakat qilmaydi. Berilgan savollarga javob bermaydi. O'quv tartib intizomiga rioya qilmaydi.	1

### OB ni baholash mezonlari

OB ma'ruza materiallari bo'yicha 2 marta yozma ish yoki test sinovlari ko'rinishida o'tkazilishi mumkin, har bir OB maksimal 15 ball bilan baxolanadi, OB ni baholashda har bir savol uchun alohida ball ajratiladi va mos baholash mezoni qo'llaniladi. Bundan tashqari OB kesimida mustaqil ish uchun umumiy tarzda yana 5 ball ajratiladi.

**Oraliq baxolash “Yozma ish”ni baxolashda quyidagi omillar xisobga olinadi**

<b>Baxolanishi</b>	<b>Baxolash omillari</b>	<b>OB “Yozma ish”ni baxolash ballari</b>
Har bir savol uchun alohida baholanadi	1. Javobning to’g’riligi va to’liqligi	4
OB “Yozma ish” bo’yicha umumiy baholanadi	2. Javob berishda ijodiy yondashish	4
	3. Javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik	3
	4. Ish xajmi	2
	5. Xusnixat	2
Jami		15

**YaB ni baholash mezonlari**

YaB ma’ruza va amaliy materiallari bo’yicha semestr yakunida o’tkaziladi va maksimal 30 ball bilan baholanadi. YaB yozma ish yoki test sinovlari ko’rinishida o’tkazilishi mumkin. Talaba yozma YaB ga ajratilgan saralash balini to’plagan taqdirda uning YaB da to’plagan bali inobatga olinadi va umumiy reytingiga qo’shiladi. YaB ni baholashda har bir savol uchun alohida ball ajratiladi va mos baholash mezonlari qo’llaniladi.

<b>Baxolanishi</b>	<b>Baxolash omillari</b>	<b>“Yozma ish” bali</b>
Har bir savol uchun alohida baholanadi	1. Javobning to’g’riligi va to’liqligi	20
“Yozma ish” bo’yicha umumiy baholanadi.	2. Javob berishda ijodiy yondashish	4
	3. Javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik	2
	4. Ish xajmi	2
	5. Xusnixat	2
	Jami	30

## **XULOSA**

1. Mavzu bo'yicha kerakli adabiyotlar tanlab olindi va tahlil qilindi.
2. Mazkur kurs ishida "Pedagogika. Psixologiya" fanidan tanlab olingan mavzularning ma'ruza matni qayta ishlandi.
3. Fanni o'qitishni tashkil qilishda foydalaniladigan pedagogik usullar, didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalari va interfaol ta'lim usullari tanlandi va mazmuni ochib berildi.
4. Tanlab olingan mavzular bo'yicha Blum taksonomiyasining "BILISH" kategoriyasi bo'yicha 3 ta, "TUSHUNISH" kategoriyasi bo'yicha 3 ta, "QO'LLASH" kategoriyasi bo'yicha 3 ta, "TAHLIL" kategoriyasi bo'yicha 3 ta, "SINTEZ" kategoriyasi bo'yicha 3 ta va "BAHOLASH" kategoriyasi bo'yicha 3 ta o'quv maqsadlari (kutiladigan ta'lim natijalari) ishlab chiqildi.
5. "Muloqot psixologiyasi" mavzusining texnologik model va xaritasi ishlab chiqildi.
6. Tanlangan mavzular bo'yicha didaktik o'yinli texnologiyalari va interfaol ta'lim usullari asosida dars o'tish metodikasi ishlab chiqildi.
7. Mavzularni keng yoritish maqsadida bir qator didaktik o'yinli texnologiyalari va innovatsion ta'lim usullar: "Jumboq ko'chasi", "Tasavvur qiling" va «Sud» darsi, "Baliq ovi", "Kosmik tezlik", "Uchta gap" o'yinlari "Kichik guruxlarda ishlash", "REZYUME" texnologiyalaridan foydalanildi.
8. Tanlab olingan mavzular bo'yicha innovatsion ta'lim texnologiyalariga tegishli bir qator interfaol usullardan foydalanish natijasida "Duradgorlik" faning amaliy ahamiyati yanada keng va chuqurroq ochib berildi.
9. Ushbu mavzularni o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalari va innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir qator interfaol usullardan foydalanish ushbu fanning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini o'qitishning samaradorligini oshirishga olib keladi.
10. Pedagogika. Psixologiya" fanidan talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tizimi takomillashtirildi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi 13-14 b
2. Mirziyoev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T. “O‘zbekiston” 488 b. 2017 y.
3. Nishonova Z.T. “Psixologik xizmat”. oquv qo‘llanma Yangiyul 2007
4. Mavlonov A., Abdalova S., Allamberganova M., Ilyasova Z. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda ta‘lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013yil 142 b
5. Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi SamDU 1999y.
6. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent “YAngi asr avlodi”2008y.
7. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. T.: 2000y.
8. Alimjonova J. I. Mutaxassislik o‘qitish metodologiyasi (ma‘ruzalar matni) TKTI. – T.: 2009
9. YUsupova P.A. Maktab ta‘limi pedagogikasi T. “O‘zbekiston” 1993.
10. dots. Ro‘zieva D.I. “Kasbiy faoliyatni modellashtirish texnologiyasi” T. TDPU 2016
11. Alimjonova Dj.I., Aliyev I.T. Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, T.: "Iqtisod - Moliya", 2015, 276 b.
12. Mavlonov A., Abdalova S., Allamberganova M., Ilyasova Z. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda ta‘lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013yil 142 b
13. <http://www.referat.ru>
14. [www.inter-pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru);
15. [www.school.edu.ru](http://www.school.edu.ru)
16. www. tdpu. uz
17. www. pedagog. uz
18. 7. www. Ziyonet.uz
19. 8. www. edu. uz